O‘ZBEKISTON REPSUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

Rustam SHARIPOV

Xayrulla HAMIDOV

YURIDIK TERMINLARNING O‘ZBEKCHA-RUSCHA IZOHLI L U G‘ A T I

ТОЛКОВЫЙ СЛОВАРЬ УЗБЕКСКО-РУССКИХ ЮРИДИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ

Toshkent – 2021

Yuridik terminlarning o‘zbekcha-ruscha izohli lug‘ati. Толковый словарь узбекско-русских юридических терминов. − T., 2021. − 364 b.

Tuzuvchilar: f.f.n. dots. **Sharipov Rustam Husniddinovich**
PhD. dots. **Hamidov Xayrulla Xudoyorovich**

TDShUning “Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika” kafedrasida lug‘atchilik ilmi an’analari va talablari asosida tayyorlangan ushbu lug‘atda yuridik sohaga oid o‘zbekcha terminlar va ularning ruscha muqobillari izohlari bilan berilgan. Maxsus yuridik terminlar bilan bir qatorda, yuridik amaliyot, nazariya, ilm-fan va ta’lim jarayonida keng qo‘llaniladigan 1500 ga yaqin terminologik birlik o‘rin olgan lug‘atdan o‘rin olgan terminlar o‘zbek va rus tillaridagi turli manbalar, jumladan, ikki tilli va izohli lug‘atlar, sohaga oid o‘quv qo‘llanmalari va ilmiy asarlardan olinib, izohlangan. Yuridik ta’lim va ilm-fan bilan shug‘ullanadigan tarjimon-mutaxassislar, tadqiqotchilar, yuridik terminlarning ozbekcha (ruscha) va sharq tilidagi izohli lug‘atini tuzmoqchi bo‘lgan mutaxassislar, xususan, o‘zbekcha-ruscha va ruscha-o‘zbekcha yuridik matnlarning yozma va og‘zaki tarjimasi sirlarini o‘rganayotgan oliy ta’lim muassasalari magistrant va talabalari, huquqshunoslar uchun mo‘ljallangan lug‘atda izohlangan o‘zbekcha terminlar yosh avlod qiyinchiliksiz foydalanishi uchun lotin yozuviga asoslangan yangi o‘zbek alifbosida berildi.

Mas’ul muharrir va so‘zboshi muallifi:
filologiya fanlari doktori, professor ***Abdurahim Mannonov***

Taqrizchilar:
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ***Nilufar Xodjayeva***
filologiya fanlari nomzodi, dots. ***Ergash Ochilov***

Ushbu lug‘at Toshkent davlat sharqshunoslik instituti O‘quv-uslubiy kengashining 2020 yil 31 oktyabridagi 1-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi “Intellektual mulk konsultativ markazı” davlat unitar korxonasi tomonidan mualliflik huquqi obyekti sifatida deponentlangan (**Guvohnoma № 003077, 2021 yil 12 yanvar**).

© R.Sharipov, X.Hamidov, 2021
© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2021.

SO‘ZBOSHI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2020 yil 20 oktyabrida o‘zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiborini yuksaltirish, yosh avlodni vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, O‘zbekistondagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o‘zbek tilini o‘rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, o‘zbek tili va til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalish va vazifalarini hamda istiqboldagi bosqichlarini belgilash maqsadida imzolagan “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-sonli Farmonida, shuningdek, Prezidentimizning 2019 yil 21 oktyabrdagi «O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5850-son Farmonida o‘nlab mas’uliyatli vazifalar qatorida 2020 yilda o‘zbek tilining lug‘at boyligini oshiruvchi lingvistik, sohaviy-terminologik, izohli lug‘atlar yaratish vazifasi ham belgilab qo‘yilgan. Ushbu tarixiy Farmon bo‘yicha Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligiga o‘zbek tilidagi mavjud lug‘atlar asosida uzluksiz ta’limning barcha turlari uchun o‘quv lug‘atlarini yaratish choralarini ko‘rish topshirilgan.

Yurtboshimiz 2020 yil 20 oktyabrda imzolagan PF-6084-son Farmonning “2020-2030 yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi” deb nomlangan 1-Ilovasidagi “Ta’lim tashkilotlarida davlat tilini o‘qitish tizimini yanada takomillashtirish, uning ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish” deb nomlangan 2-§ da o‘zbek tili o‘quv leksikografiya tarmog‘ini rivojlantirish, zamonaviy, yangi avlod o‘quv lug‘atlarini tuzish hamda ularning elektron shakllarini va sohalar bo‘yicha atamalar lug‘atini yaratish; “Davlat tilining xalqaro miqyosdagi o‘rni va nufuzini oshirish, bu borada xorijiy hamkorlik aloqalarini rivojlantirish” deb nomlangan 5-§da turkiy tilli davlatlar bilan hamkorlik jarayonlarini rivojlantirish maqsadida o‘zbek tilining qardosh tillar bilan tarjima lug‘atlarini hamda ularning mobil ilovalarini yaratish, shuningdek, “Konsepsiyani amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar” deb nomlangan 3-bobda ilmiy asoslangan yangi so‘z va atamalar muntazam ravishda rasmiy muomalaga kiritib borilishi; o‘zbek tili o‘quv leksikografiya tarmog‘ini rivojlantirish, zamonaviy, yangi avlod o‘quv lug‘atlarini tuzish hamda ularning elektron shakllarini yaratish orqali sohalar bo‘yicha milliy terminologik tizim takomillashtirilishi; o‘zbek tili o‘quv leksikografiya tarmo-

g‘ini rivojlantirish, yangi avlod o‘quv va atamalar lug‘atlarini yaratish, ularning elektron variantlarini ishga tushirish alohida belgilab qo‘yilgan.

Yana shuni ta’kidlash joizki, Mustaqillik yillarida demokratik huquqiy davlat barpo etish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish davlatimiz tomonidan bosh maqsad qilib belgilandi. Shunday ekan, huquqiy demokratik davlat qurishning eng muhim tamoyillaridan biri mamlakatda qonun ustuvorligini ta’minlashdir. Davlat tushunchasining o‘zi davlat mustaqilligidan kelib chiqadi. Har bir mustaqil mamlakat esa, o‘zining davlat tiliga ega bo‘ladi va har bir xalq o‘z ona tili ravnaqi uchun kurashadi. Shu bois, mamlakatimiz mustaqilligi ona tilimizga davlat tili maqomi berilishi bilan boshlandi, desak xato bo‘lmaydi.

So‘nggi yillarda o‘zbek tilshunosligi tarmoqlari yanada rivojlandi. Konstitutsiyamizning o‘zbek tilida yaralishi, yangidan-yangi qonunlar, hujjatlarning ona tilida qabul qilinishi sodir bo‘layotgan kuchli ijtimoiy-siyosiy, moddiy-madaniy, ma’naviy-ma’rifiy islohotlar o‘zbek tilshunosligi, xususan, o‘zbek yuridik terminologiyasining taraqqiyoti uchun hal qiluvchi omillardan biri bo‘ldi. O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi esa, o‘zbek yuridik tilining har tomonlama shakllanishida muhim qonuniy negiz bo‘lib xizmat qilmoqda. O‘zbek tilining mavqei oshishi, erkin fuqarolik jamiyatining barpo etilishi, huquqiy madaniyatning o‘sishi, o‘zbek yurisprudensiyasi shakllanishi, ilmiy tamoyillarining ishlab chiqilishi va rivoji tilimizning Istiqlol davri taraqqiyotini tashkil etadi.

O‘zbek leksikologiyasi va leksikografiyasining taraqqiyoti, tarixi va ilmiy-nazariy asoslarining shakllanishi, fanning barcha tarmoqlari, shu jumladan, yurisprudensiyaga oid terminologiyaning takomillashuvi o‘zbek huquqiy tezaurusi ilmiy tamoyillarini o‘rganish va tadqiq etish imkonini bermoqda. Qonunlarni o‘zbek tilida ishlab chiqish qator lug‘atlar yaratishni taqozo qilmoqda. Natijada milliy qonunchiligimiz taraqqiy topmoqda.

Yurtboshimiz tomonidan xalqimizning huquqiy madaniyatini oshirish, qonun va qonunchilik hujjatlari mohiyatini aholining keng qatlamlariga yetkazish bilan bog‘liq dolzarb vazifalarni belgilab berildi. Jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlash – bu fuqarolarning qonunga og‘ishmay, qat’iy rioya qilishidir. Buning uchun esa, yuridik til, uning leksikasi pishiq-puxta bo‘lishi, xalq tushunadigan tilda sodda va ravon ishlab chiqilishi, yuridik terminlar ilmiy-amaliy jihatdan tartibga solinishi kabi masalalarning ijobiy hal qilinishi o‘ta muhimdir. Zero, jamiyatdagi islohotlar, tub o‘zgarishlar, ilm-fan taraqqiyoti o‘zbek

yuridik tili izohli lug‘atining hozirgi paytda qanchalik zarur ekanligini yaqqol ko‘rsatmoqda.

O‘quvchi e‘tiboriga havola etilayotgan ushbu izohli lug‘atda hozirgi o‘zbek yurisprudensiya tarmoqlari tilining keng iste‘moldagi so‘z zahirasini to‘plash va ularni tavsiflash, me’yorlarini belgilash va mustahkamlash asosiy maqsad qilib belgilandi. Yurisprudensiyaning barcha soha yo‘nalishiga oid terminlar qamrab olishga harakat qilingan mazkur lug‘atning normativligi shundaki, unda yuridik til leksikasining ishlatish me’yorlari tavsiya etiladi, har bir terminning yozilish shakli, qo‘llanish doirasi, ma’nosi aniq izohlanadi. Lug‘atchilik ilmi an’analari va talablari asosida tayyorlangan, asosan ilm-fan, ta’lim jarayonida faol qo‘llaniladigan terminlar jamlangan ushbu manbada huquq fani terminlari o‘zbek adabiy tili talablari, lug‘at tuzish tamoyillariga amal qilgan holda berilgan.

Yuridik terminlarning asosiy qismi ko‘p asrlik taraqqiyot bosqichini bosib o‘tgan. Ushbu sohani tadqiq va tahlil etgan olimlar terminlarning mazmun-mohiyatini o‘rganib, maxsus nomlar bilan ataganlar, mavjud tajribalarni umumlashtirib, muayyan qonun-qoidalarni ishlab chiqqanlar, terminlarni yaxlit tizimga solishga harakat qilganlar. Shu tariqa yuridik terminlar shakllanib, takomillashib kelgan. So‘nggi o‘n yilliklarda sohada ruschadan va rus tili orqali yevropa tillaridan o‘zlashgan terminlar ham salmoqli qismni tashkil etadi. Ularning bir qismi aynan qabul qilingan bo‘lsa, bir qismi tarjima qilib olingan, ayrimlari esa komponentlarining birini aslan, birini tarjima yo‘li bilan ishlatilmoqdaki, bunday hususlar lug‘atni tuzishda inobotga olingan.

Lug‘atchilik ilmi an’analari va talablari asosida tayyorlangan ushbu lug‘atda yuridik sohaga oid o‘zbekcha-ruscha terminlar izohlari bilan berilgan. Maxsus yuridik terminlar bilan bir qatorda, yuridik amaliyot, nazariya, ilm-fan va ta’lim jarayonida keng qo‘llaniladigan 1500 ga yaqin terminologik birlik o‘rin olgan lug‘atda berilgan terminlar o‘zbek va rus tillaridagi turli manbalar, jumladan, ikki tilli va izohli lug‘atlar, sohaga oid o‘quv qo‘llanmalari va ilmiy asarlardan olinib, izohlangan.

Yuridik ta’lim va ilm-fan bilan shug‘ullanadigan tarjimon-mutaxassislar, tadqiqotchilar, yuridik terminlarning ozbekcha (ruscha) va sharq tilidagi izohli lug‘atini tuzmoqchi bo‘lgan mutaxassislar, xususan, o‘zbekcha-ruscha va ruscha-o‘zbekcha yuridik matnlarning yozma tarjimasi, sinxron va ketma-ket tarjima sirlarini o‘rganayotgan oliy ta’lim muassasalari magistrant va talabalari, huquqshunoslar uchun mo‘ljallangan lug‘atda izohlangan o‘zbekcha terminlar yosh avlod qi-

yinchiliksiz foydalanishi uchun lotin yozuviga asoslangan yangi o‘zbek alifbosida berilgan.

TDShU “Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika” kafedrasi mutaxassis o‘qituvchilari, sohaviy lug‘atlar tuzish bo‘yicha ancha tajriba orttirgan f.f.n. dots. Rustam Sharipov va PhD. dots. Xayrulla Hamidovlar tomonidan yuridik sohaga tegishli eng muhim va eng faol terminlar tanlab olinib, tuzilgan ushbu lug‘at kelajakda nashrdan-nashrga kengayib, yanada mukammallashib boradi, deb umid qilamiz.

Filologiya fanlari doktori, professor
Abdurahim MANNONOV

LOTIN GRAFIKASIGA ASOSLANGAN YANGI O‘ZBEK ALIFBOSİ[1]

Harflarning joylashish tartibi	Katta harflar	Kichik harflar	Harflarning kirill yozuvidagi shakli
1.	**A**	**a**	**А а**
2.	**B**	**b**	**Б б**
3.	**D**	**d**	**Д д**
4.	**E**	**e**	**Э э**
5.	**F**	**f**	**Ф ф**
6.	**G**	**g**	**Г г**
7.	**H**	**h**	**(кх)**
8.	**I**	**i**	**И и**
9.	**J**	**j**	**(дж)**
10.	**K**	**k**	**К к**
11.	**L**	**l**	**Л л**
12.	**M**	**m**	**М м**
13.	**N**	**n**	**Н н**
14.	**O**	**o**	**о** (инг. ***or***)
15.	**P**	**p**	**П п**
16.	**Q**	**q**	**(кхъ)**
17.	**R**	**r**	**Р р**
18.	**S**	**s**	**С с**
19.	**T**	**t**	**Т т**
20.	**U**	**u**	**У у**
21.	**V**	**v**	**В в**
22.	**X**	**x**	**Х х**
23.	**Y**	**y**	**Й й**
	Ya	**ya**	**Я я**
	Ye	**ye**	**Е е**
	Yo	**yo**	**Ё ё**
	Yu	**yu**	**Ю ю**
24.	**Z**	**z**	**З з**
25.	**O‘**	**o‘**	**(о)**
26.	**G‘**	**g‘**	**(гх)**
27.	**Ch**	**ch**	**Ч ч**
28.	**Sh**	**sh**	**Ш ш**
29.	**ng**	**ng**	**(ньг)**

[1] Jadvalda lotin grafikasiga asoslangan yangi o‘zbek alıfbosidagi harflarning tartibi, katta va kichik yozilish shakllari hamda kırıll yozuvıdagı shaklları berilgan.

A a

Absolyut monarxiya – (mutlaq monarxiya) – monarx hokimiyati biron bir muassasa tomonidan cheklanmagan davlat tuzumi.

Avariya rejimi – elektr energetikasi obyektlari ishlashi texnologik parametrlarining yagona elektr energetikasi tizimining ishonchli ishlab turishi buzilishiga va iste'molchilarga elektr energiyasi yetkazib berilishi cheklanishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan, yo‘l qo‘yib bo‘lmaydigan buzilish.

Avtonom tuzilma – avtonom respublikalar, avtonom viloyatlar, avtonom okruglar va b. Avtonom birliklarga nisbatan qo‘llaniladigan umumlashtiruvchi tushuncha.

Avtonomiya (yun. Autonomia – o‘z-o‘zini boshqarish, so‘zma-so‘z qonunning o‘zi, autos- o‘zini + nomos-qonun so‘zlaridan) – huquqda keng ma'noda ma'lum bir davlat yoki boshqa tuzilmalar, yuridik shaxslar, hududiy, milliy va b. Uyushmalarning mavjud bo‘lishi va faoliyat ko‘rsatishini tashkil etish b-n bog‘liq munosabatlarda o‘zini o‘zi boshqarishi, mustaqilligidir.

Avtoritar rejim (lot. Autoritas – hokimiyat, obro‘, nufuz va e'tibor; ta'sir etish) – davlat rejimining nodemokratik turlaridan biri bo‘lib, bunda hokimiyat yakka shaxs yoki bir guruh shaxslarning qo‘lida to‘plangan bo‘ladi. A.r.da, odatda, shaxsiy diktatura elementlari mavjud bo‘ladi. A.r.da haqiqiy hokimiyat tor elita doira qo‘lida bo‘lib, shaxsiy manfaatlar davlat manfaatlari yo‘lida qurbon qilinadi.

Абсолютная монархия – государственное устройство, при котором власть монарха не ограничена какими-либо учреждениями.

Аварийный режим – недопустимое отклонение технологических параметров работы объектов электроэнергетики, которое может привести к нарушению надежного функционирования единой электроэнергетической системы и ограничению поставки электрической энергии потребителям.

Автономное образование – обобщенное понятие, применяемое по отношению к автономным республикам, автономным областям, автономным округам и другим автономным единицам.

Автономия (гр. Autonomia – самоуправление, от autos-сам и nomos-закон) – в широком смысле, определенная степень самостоятельности каких-либо органов, организаций, территориальных и иных общностей, юридических лиц и т.д. в вопросах их компетенции и других вопросах организации.

Авторитарный режим (от лат. autoritas – власть) – один из видов политического режима, ограничивающий демократию и устанавливающий власть одного лица или группы лиц (диктатуру). А.р. предполагает концентрацию основной (или почти всей) государственной власти в руках одного лица или группы лиц. При А.р. политическая элита незаконно присваивает, узурпирует или захваты-

Agrar huquq – qishloq xo‘jalik faoliyatini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar majmui.

Advokat – yuridik ma’lumotga ega bo‘lgan va advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi litsenziyani belgilangan tartibda olgan O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi.

Advokatlar palatasi – O‘zbekiston Respublikasi barcha advokatlarining majburiy a’zoligiga asoslangan notijorat tashkilot. Advokatlar palatasi o‘zining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida tuziladigan hududiy boshqarmalar bilan birgalikda advokaturaning yagona o‘zini o‘zi boshqarish tizimini tashkil etadi. Advokatlar palatasi advokatlarning qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan faoliyatiga aralashmaslik prinsipi asosida faoliyat ko‘rsatadi. Advokatlar palatasining vazifalari va vakolatlariga o‘xshash vazifalar va vakolatlarga ega bo‘lgan boshqa tashkilotlarni tashkil etishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Advokatlar hay’ati – a’zolikka asoslangan va advokatlik faoliyatini amalga oshirish uchun advokatlar tomonidan ta’sis etilgan, notijorat tashkiloti bo‘lgan advokatlik tuzilmasidir. Advokatlar hay’atining ta’sis hujjatlari uning muassislari tomonidan tasdiqlanadigan ustav hamda ular tomonidan tuziladigan ta’sis shartnomasidir.

Advokatlik byurosi – advokatlik faoliyatini yakka tartibda amalga

вает власть.

Аграрное право – совокупность правовых норм, регулирующих общественные отношения, складывающиеся в сельском хозяйстве, в процессе осуществления сельскохозяйственной деятельности.

Адвокат – гражданин Республики Узбекистан, имеющий высшее юридическое образование и получивший в установленном порядке лицензию на право занятия адвокатской деятельностью.

Палата адвокатов – некоммерческая организация, основанная на обязательном членстве всех адвокатов Республики Узбекистан. Палата адвокатов вместе с ее территориальными управлениями, создаваемыми в Республике Каракалпакстан, областях и городе Ташкенте, образует единую систему самоуправления адвокатуры. Палата адвокатов действует на основе принципа невмешательства в деятельность адвокатов, осуществляемую в соответствии с законодательством. Образование других организаций с функциями и полномочиями, аналогичными функциям и полномочиям Палаты адвокатов, не допускается.

Коллегия адвокатов – адвокатское формирование, являющееся некоммерческой организацией, основанной на членстве и учрежденной адвокатами для осуществления адвокатской деятельности. Учредительными документами коллегии адвокатов являются устав, утверждаемый ее учредителями, и заключаемый ими учредительный договор.

Адвокатское бюро – адвокатское формирование, являющееся

oshirish uchun advokat tomonidan ta’sis etilgan, notijorat tashkiloti bo‘lgan advokatlik tuzilmasidir. Advokatlik byurosining ta’sis hujjati muassis tomonidan tasdiqlanadigan ustavidir.

Advokatlik dos’esi – ishonch bildiruvchining qonuniy manfaatlari va huquqlarini himoya qilish chog‘ida advokat tomonidan yagona papkada to‘plangan ish materiallari, advokatlik ish yurituv hujjatlari. Masalan, da’vo arizasi va unga ilova qilinishi lozim bo‘lgan tasdiqlovchi hujjatlar.

Advokatlik orderi – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan maxsus shakldagi advokatning muayyan ish bo‘yicha ishonch bildiruvchi manfaatlarini surishtiruv dastlabki tergov, sudlar, shu jumladan, xo‘jalik sudi, davlat boshqaruvi, ma’muriy organlarda himoya qilishga vakolatli ekanligini tasdiqlovchi hujjat. Advokatning ishda ishtirok etishiga uning tomonidan advokatlik guvohnomasini ko‘rsatganidan va muayyan ishni yuritishga vakolatli ekanligini tasdiqlovchi orderni taqdim etganidan keyin yo‘l qo‘yiladi.

Advokatlik siri – advokat advokatlik sirini saqlashga majbur. Advokatdan va uning yordamchisidan advokatlik predmeti hisoblangan holatlar to‘g‘risida biror-bir tushuntirish yoki ko‘rsatuvlar berishni talab qilish, shuningdek ular haqida tezkor-qidiruv faoliyatida, jinoyat ishlari, ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlar va boshqa ishlarni yuritishda foydalanish uchun biror-bir material taqdim etishni talab qilish man etiladi.

некоммерческой организацией, учрежденной адвокатом для осуществления адвокатской деятельности индивидуально. Учредительным документом адвокатского бюро является его устав, утверждаемый учредителем.

Адвокатское досье – все материалы дела, собранные адвокатом в единой папке при осуществлении им защиты прав и законных интересов доверителя. Например, исковое заявление и прилагаемые к нему подтверждающие документы.

Адвокатский ордер – специальная форма документа, утвержденная Министерством юстиции Республики Узбекистан подтверждающая полномочия адвоката, право на защиту интересов доверителя по конкретному делу в административных органах, в органах государственного управления, на дознании, на предварительном следствии, в суде и в том числе в хозяйственном суде. Участие адвоката по делу допускается при предъявления адвокатского удостоверения и ордера, подтверждающего полномочия адвоката для введения конкретного дела.

Адвокатская тайна – адвокат обязан хранить адвокатскую тайну. Предметом адвокатской тайны является сам факт обращения доверителя (подзащитного) к помощи адвоката; вопросы, по которым доверитель (подзащитный) обратился за помощью; суть консультаций, советов и разъяснений, полученных доверителем (подзащитным) от адвоката; все иные сведения, касающиеся содержания бесед адвоката с клиентом.

Advokatlik so‘rovi – advokat kasbiy faoliyatini amalga oshirish jarayonida yuridik yordam ko‘rsatilishi munosabati bilan davlat organlaridan, korxona, muassasa, tashkilotlardan hamda jamoat birlashmalaridan zarur bo‘lgan ma’lumotnomalar, tavsifnomalar va boshqa hujjatlarni so‘rashi va olishi.

Advokatlik faoliyati – qonunda belgilangan tartibda advokat maqomini olgan shaxslar tomonidan ishonch bildiruvchilar – jismoniy va yuridik shaxslarga ularning huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, odil sudlovdan foydalanish imkoniyatini ta’minlash maqsadida professional asosda ko‘rsatiladigan malakali yuridik yordam.

Advokatlik faoliyatining kafolatlari – advokatning kasbga oid huquqlari, sha’ni va qadr-qimmati qonun bilan qo‘riqlanadi. Advokatlarning kasbiy faoliyatiga u yoki bu tarzda aralashish, ular o‘z kasbiy vazifalarini bajarayotganda olgan muayyan ma’lumotlarni oshkor etishni talab qilish, shuningdek, advokatlar birlashmalarining mansabdor shaxslaridan va texnik xodimlaridan xuddi shunday ma’lumotlarni talab qilish ta’qiqlanadi. Advokat o‘z kasbiy vazifalarini bajarayotganida unga biror-bir shaklda ta’sir o‘tkazishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Advokatlik firmasi – sheriklikka asoslangan va advokatlik faoliyatini amalga oshirish uchun advokatlar tomonidan ta’sis etilgan, notijorat tashkiloti bo‘lgan advokatlik tuzilmasidir. Advokatlik firmasini ta’sis

Запрос адвоката – запрашивание адвокатом необходимой информации, характеристики и других документов в процессе выполнения профессиональной деятельности в связи с оказанием правовой помощи из государственных органов, предприятий, учреждений, организаций а также общественных объединений.

Адвокатская деятельность – профессиональная, квалифицированная юридическая помощь доверителям, физическим и юридическим лицам по защите их законных прав и интересов, а также для обеспечения возможности правосудия со стороны адвокатов, получивших полномочия в установленном порядке по закону.

Гарантии адвокатской деятельности – профессиональные права, честь и достоинство адвоката охраняются законом. Запрещается какое бы то ни было вмешательство в профессиональную деятельность адвокатов, требование от них сообщений каких-либо сведений, полученных при исполне ma профессиональных обязанностей, а также требование подобных сведений от должностных лиц и технических работников адвокатских объединений. Любые формы воздействия на адвоката во время исполнения им своих профессиональных обязанностей недопустимы.

Адвокатская фирма – адвокатское формирование, являющееся некоммер-ческой организацией, основанной на партнерстве и учрежденной адвокатами для осуществления адвокатской деятель-

etgan advokatlar oddiy yozma shaklda o‘zaro sheriklik shartnomasini tuzadi.

Advokatning bitimi – bu mijoz fuqaro, tashkilot bilan shartnoma bo‘yicha vakil sifatidagi advokat o‘rtasida muayyan sudda muayyan moddiy huquqlar va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarni himoya qilish bo‘yicha muayyan yuridik yordam ko‘rsatish uchun yozma ravishda tuziladigan topshiriq shartnomasidir.

Advokatning vazifalari – advokat o‘z professional faoliyatida amaldagi qonun hujjatlari talablariga, advokatning kasb etikasi qoidalariga, advokatlik siri va advokat qasamyodiga rioya etishi, o‘ziga yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning qonunda nazarda tutilgan vositalari hamda usullaridan foydalanishi shart.

Advokatning vakolatlari – advokat O‘zbekiston Respublikasining butun hududida, shuningdek, agar olingan topshiriqni bajarish zaruriyati taqozo etsa va tegishli davlatlarning qonun hujjatlariga zid bo‘lmasa, respublika tashqarisida ham advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga ega. Muayyan ishni olib borishga advokatning vakolatli ekanligi advokatlik orderi bilan tasdiqlanadi.

Advokatning daxlsizligi – advokatning shaxsi daxlsiz. Advokatning daxlsizligi uning uy-joyiga, xizmat xonasiga, foydalanishidagi transporti va aloqa vositalariga, uning xat-xabarlariga, unga tegishli ashyolar va

ности. Учредительным документом адвокатской фирмы является устав, утверждаемый ее учредителями.

Соглашение адвоката – соглашение (договор) об оказании юридической помощи представляет собой гражданско-правовой договор, заключаемый в простой письменной форме между доверителем (подзащитным) и адвокатом, на оказание юридической помощи самому доверителю (подзащитному) или назначенному им лицу в суде.

Обязанности адвоката – адвокат обязан в своей профессиональной деятельности соблюдать требования действующего законодательства, правила профессиональной этики адвокатов, адвокатскую тайну и присягу адвоката, использовать предусмотренные законом средства и способы защиты прав и законных интересов физических и юридических лиц, обратившихся к нему за юридической помощью.

Полномочия адвоката – адвокат на всей территории Республики Узбекистан и при необходимости, если выполнение задания требует и это не противоречит законам тех государств, то и вне республики, имеет право заниматься адвокатской деятельностью. Для ведения конкретного дела правомочность адвоката подтверждается адвокатским ордером.

Неприкосновенность адво m-та – личность адвоката неприкосно mal. Неприкосновенность адвоката заключается в запрещении без официального ордера (разрешения) входа на жилище, служеб-

hujjatlarga ham taalluqlidir. Advokatga nisbatan jinoyat ishi O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurori, viloyat, Toshkent shahar prokurori va ularga tenglashtirilgan prokurorlar tomonidan qo‘zg‘atilishi mumkin.

Advokatning intizomiy javobgarligi – advokat tomonidan advokatura to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablari, advokatning kasb etikasi qoidalari, advokatlik siri va advokat qasamyodi buzilganligi unga nisbatan intizomiy choralar qo‘llanilishiga sabab bo‘ladi. Intizomiy ish yuritish Advokatlar palatasining tegishli hududiy boshqarmasi yoki advokatga guvohnoma bergan adliya organi tomonidan qo‘zg‘atiladi.

Adolat huquqi – anglo-sakson huquq oilasi amalda bo‘lgan mamlakatlar huquqining manbasi bo‘lib, u Angliyada XV asrdan boshlab, Lord kantsler tomonidan mustaqil sud`ya sifatida Qirol va uning kengashi nomidan yakka tartibda ishlarni ko‘rishi natijasida va shu asosda tizimli ravishda “adolat” doktrinasi sifatida qabul qilingan qarorlar hisoblanadi.

Adolatsiz sud qarori – ishning aniqlangan holatlariga zid ravishda yoki moddiy yoxud protsessual qonunni jiddiy buzgan holda qabul qilingan sud hujjati (hukm, hal qiluv qarori, ajrim yoki qaror).

Ayollar jinoyatchiligi – voyaga

ное помещение, на транспорт, находящийся в использовании адвоката и доступа к средствам связи и другие корреспонденции, вещам и документам. В отношении адвоmта возбудить уголовное дело могут Ген.прокурор РУз, Прокурор Республики Каракалпакстан, прокуроры областей, г.Ташкента.

Дисциплинарная ответственность адвоката – нарушение адвокатом требований законодательства об адвокатуре, Правил профессиональной этики адвокатов, адвокатской тайны и присяги адвоката влечет применение к нему мер дисциплинарной ответственности. Дисциплинарное производство возбуждается соответствующим территориальным управлением Палаты адвокатов или органом юстиции, выдавшим адвокату удостоверение.

Право справедливости – источник права стран, в которых действовала англо-саксонская семья права, им являются решения, принятые в качестве доктрины «справедливости» Лорд канцлером в результате рассмотрения дел в качестве самостоятельного судьи единолично от имени Короля и его совета, и систематически принимавшиеся на этой основе с XV века в Англии.

Неправосудное судебное решение – судебный акт, который вынесен вопреки установленным фактическим обстоятельствам дела либо с.нарушениями материального или процессуального права (приговор, решение, определение или постановление).

Женская преступность – сово-

yetmagan va katta yoshdagi ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning yig‘indisidan iborat. Ayollar jinoyatchiligini o‘rganishda aynan ayol jinsiga mansub shaxslarning jinoyat sodir etishiga ta’sir ko‘rsatuvchi kriminologik omillar va sabablarga e’tibor beriladi.

Ayollar huquqi – ijtimoiy, oilaviy sharoitidan kelib belgilangan ayollarning huquq va erkinliklar majmui. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasiga ko‘ra, xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. 1945 yildan ayollar huquqi xalqaro huquq tomonidan tartibga solinuvchi muhim ob’ektlardan biriga aylandi. Bu huquqlar 1948 yil Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasida ham o‘z aksini top malg uning 16-moddasida erkak va ayolning nikohdagi tengligi mustahkamlab qo‘yildi.

Ajrim – sud tomonidan chiqariladigan protsessual hujjatlardan biri, sud qarorlarining bir turi sifatida qaraladi. Ajrimlar birinchi instantsiya va apellyatsiya, kassatsiya, nazorat sudlov instantsiyalari tomonidan hamda yangi ochilgan holatlar bo‘yicha sud majlisida va sud majlisidan tashqari fuqarolik sud ishlarini yuritishning barcha bosqichlarida qonunda belgilangan asoslarga muvofiq chiqariladigan akt (protsessual hujjat) sanaladi.

Ayb – shaxsning o‘zi tomonidan sodir etilgan, Jkda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmishi (harakat yoki harakatsizlik)ga va uning ijtimoiy xavfli oqibatlariga nisbatan bo‘lgan ruhiy munosabatining qasd yoki eh-

купность преступлений, совершаемых несовершеннолетними девушками и взрослыми женщинами. При изучении женской преступности особое внимание уделяется криминологическим факторам и причинам, способствующим совершению преступлений именно лицами женского пола.

Права женщин – совокупность прав и свобод, обусловленных спецификой биологического, социального и семейного статуса женщин. Согласно ст. 46 Конституции Республики Узбекистан: женщины и мужчины имеют равные права. После 1945 г. права женщин стали одним из важных объектов международно-правового регулирования. Так, Всеобщая Декларация прав человека, принятая в 1948 году, в ст. 16 предусматривает равенство женщин и мужчин при заключении брака.

Определение – один из процессуальных документов, выносимых судом, являющийся одним из видов судебных постановлений. Определения – акты (процессуальные акты), постановляемые в соответствии с основаниями, определенными в законе судом первой, апелляционной, кассационной, надзорной инстанции, судом рассматривающим дело по вновь открывшимся обстоятельствам в судебном заседании и вне судебного заседания, на всех стадиях гражданского судопроизводства.

Вина – это выраженное в форме умысла или неосторожности психическое отношение лица к совершенному им общественно опасному деянию (действию или бездействию), предусмотренному УК, и

tiyotsizlik shaklidagi ko‘rinishi.

Ayb uchun javobgarlik – shaxs qonunda belgilangan tartibda aybi isbotlangan ijtimoiy xavfli qilmishlari uchungina javobgar bo‘lishi.

Ayb e’lon qilish – tergovchi, prokurorning shaxsga uning nimada ayblanayotganligini ma’lum qilishdan iborat protsessual harakatidir.

Aybini bo‘yniga olib arz qilish – bu o‘zini odil sudlovga topshirish va tegishli jazoga tortilish maqsadida shaxsning sodir qilgan jinoyati haqida o‘z ixtiyori bilan xabar berishidir.

Ayblanuvchi – Jinoyat protsessual kodeksida belgilangan tartibda ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilinishi haqida qaror chiqarilgan shaxs.

Ayblov – ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb etish to‘g‘risidagi yuqori instantsiya sudlarining qarorida, ayblov xulosasida, ayblov hukmida, ayblovga oid boshqa qarorlarida nazarda tutilgan ayblov xulosasi bandining mazmuni.

Ayblov xulosasi – sodir etilgan jinoyat holatlari, shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish maqsadida jinoyat ishlarini sudga jo‘natish uchun to‘plangan dalillar yetarliligi to‘g‘risidagi tergovchining xulosasi bayon etilgan dastlabki tergovni tamomlashda tuziladigan protsessual hujjat.

его общественно опасным последствиям.

Виновная ответственность – лицо подлежит ответственности лишь за те общественно опасные деяния, в совершении которых в установленном законом порядке будет доказана его вина.

Предъявление обвинения – процессуальное действие следователя, прокурора, заключающееся в объявлении лицу, в чём оно обвиняется.

Явка с повинной – добровольное сообщение лицом о совершении им какого-либо преступления с целью предать себя в руки правосудия и понести заслуженное наказание.

Обвиняемый – лицо, в отношении которого в установленном Уголовно-процессуальным кодексом порядке вынесено постановление о привлечении его к участию в деле в качестве обвиняемого.

Обвинение – содержание обвинительного тезиса, сформулированного в постановлении о привлечении к участию в уголовном деле в качестве обвиняемого, обвинительном заключении, обвинительном приговоре и решениях обвинительного характера судов вышестоящих инстанций.

Обвинительное заключение – процессуальный документ, составляемый при завершении предварительного расследования, в котором излагаются установленные обстоятельства преступления, анализируются собранные доказательства, на основе чего формулируется вывод следователя о достаточности данных для направления уголовного дела в суд, с целью

Aybsizlik prezumptsiyasi – 1) aybdorning huquqbuzarlikni qonuniy tartibda isbot qilinmaguncha, uni aybsiz deb faraz qilish;

2) gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi himoyalanish huquqi bilan ta’minlanadi. Sud ishlarini yuritishning har qanday bosqichida malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Ayblanuvchi, uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda isbotlanmagunga va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmagunga qadar, aybsiz hisoblanadi. Hech kim sud qaroriga asoslanmagan holda qamoqqa olinishi mumkin emas. Hech kim qiynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas;

3) odil sudlovning nazariya va amaliyotida, jinoyatchilikka qarshi kurashda to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatuvchi asosiy, muhim printsiplardan biridir. Unga binoan, har bir jinoyat sodir etishda ayblanayotgan shaxs aybi qonunda belgilangan tartibda va qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan isbotlanmaguncha aybsiz hisoblanadi.

Aktiv saylov huquqi (saylash huquqi) – mamlakat fuqarolarining davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va referendumda qatnashish huquqi. Ko‘pchilik mamlakatlarda A.s.h.ga ma’lum yoshga yetgan, muomalaga layoqatli mamlakat fuqarolari ega bo‘ladi. O‘zbekistonda saylash huquqiga 18 yoshga yetgan barcha fuqarolar egadirlar. Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilganlar, ozodlikdan mahrum qilish joylarida saqlanayotganlar

привлечения лица к уголовной ответсвенности.

Презумпция невиновности –

1) признание лица невиновным до момента доказательства его виновности в правонарушении в законном порядке;

2) подозреваемому, обвиняемому, подсудимому обеспечивается право на защиту. Право на профессиональную юридическую помощь гарантируется на любой стадии судопроизводства. Обвиняемый считается невиновным, пока его вина не будет доказана в предусмотренном законом порядке и установлена вступившим в законную силу приговором суда. Никто не может быть подвергнут заключению под стражу иначе как на основании решения суда. Никто не может быть подвергнут пыткам, насилию, другому жестокому или унижающему достоинство человека обращению;

3) основополагающий принцип права, согласно которому лицо считается невиновным, пока его вина не будет доказана в предусмотренном законом порядке и установлена вступившим в законную силу приговором суда.

Активное избирательное право – право граждан избирать в представительные органы государственной власти, а также участвовать в референдумах. В подавляющем большинстве государств А.и.п. принадлежит всем совершеннолетним и дееспособным гражданам В Республике Узбекистан А.и.п. наделены граждане, достигшие 18 лет. Граждане, признанные судом недееспособными, а также лица, содержащи-

saylash huquqidan foydalanmaydi, bunda ozodlikdan mahrum qilish joylarida saqlanayotganlarning saylash huquqi vaqtincha to‘xtatiladi. Ba’zi mamlakatlar, o‘zini o‘zi boshqarish organlariga bo‘lib o‘taetgan saylovlarda chet el fuqarolari ham qatnashishlari mumkin.

Aldash – mol-mulk egasi yoki mol-mulk ishonib topshirilgan shaxsning o‘zi uni jinoyatchiga ixtiyoriy ravishda, o‘z xohishi bilan berishiga erishish maqsadida, jabrlanuvchini chalg‘itish uchun aybdor shaxs tomonidan har qanday faktni buzib ko‘rsatish yoki haqiqatni yashirish yoxud bila turib yolg‘on ma’lumotlarni xabar qilish.

Alibi (ot lat. Alibi – boshqa joyda)– ayblanuvchi yoki gumon qilinuvchini jinoyat sodir etilish vaqtida jinoyat joyida bo‘lmaganligini va u bu vaqtda boshqa joyda bo‘lganligini tasdiqlovchi fakt.

Aliment – lot. Alimentum – “oziq-ovqat”, “nafaqa”, “ta’minot”, “boqish uchun mablag‘lar” degan ma’nolarni anglatadi. Aliment majburiyatlari oila a’zolari o‘rtasida sodir bo‘ladi.

Alkogolizm – alkogolga nisbatan og‘riqli tortish, me’yor hissini yo‘qotish, iste’mol qilayotgan spirtli ichimlikning miqdorini nazorat qila olmaslik, ruhiy kasalliklar va ijtimoiy axloq me’yorlarining buzilishi.

Alohida qimmatli hujjat – o‘chmas tarixiy-madaniy va ilmiy qimmatga, jamiyat hamda davlat uchun alohida ahamiyatga ega bo‘lgan, hisobga olish, saqlash va foydalanishning alohida tartibi belgilangan arxiv

еся в местах лишения свободы по приговору суда, лишены А.и.п. На выборах в органы местного самоуправления в некоторых странах предоставляется и иностранцам.

Обман – это умышленное искажение лицом любых истинных фактов или сознательное сокрытие истины либо сообщение заведомо ложных сведений для введения в заблуждение лица, в ведении или владении которого находится имущество, с тем, чтобы оно само добровольно передало его виновному лицу.

Алиби (от лат. alibi – в другом месте) – факт нахождения обвиняемого или подозреваемого вне места преступления в момент его совершения, установленный доказанным присутствием его в это время в другом месте.

Алимент – правоотношение, возникающее на основании соглашения сторон или решения суда, в силу которого одни члены семьи обязаны предоставлять содержание другим ее членам, а последние вправе его требовать.

Алкоголизм – состояние, когда у лица наличествует болезненное влечение к алкоголю, потеря чувства меры, контроля над количеством потребляемого спиртного, появление психических и соматических расстройств и нарушение социальных норм поведения.

Особо ценный документ – архивный документ, представляющий собой непреходящую историко-культурную и научную ценность, особую важность для общества и государства, в отношении

hujjati.

Alohida tartibda ish yuritish – fuqarolik sud ishlarini yuritish turlaridan biri bo‘lib, qonunda belgilangan nizosiz ishlar (faktlar)ni belgilash tartibi tushuniladi. Alohida tartibda ko‘riladigan ishlarda huquq haqidagi nizo bo‘lmaydi va shunga ko‘ra u da’vo ishlarini yuritishdan farq qiladi. Alohida tartibda yuritiladigan ishlar sifatida yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan faktlarni aniqlash; fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topish va fuqaroni o‘lgan deb e’lon qilish; fuqaroni muomala layoqati cheklangan yoki muomalaga layoqatsiz deb topilgan; g‘ayriixtiyoriy tartibda psixiatriya statsionariga yotqizish mol-mulkni (ashyoni) egasiz deb topilgan; taqdim etuvchiga deb berilgan hujjatlar yo‘qolgan taqdirda ular bo‘yicha huquqlarni tiklash (chaqirib ish yuritish) ga oid ishlar ko‘riladi. Yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan faktlarni belgilash to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha arizalar arizachi (da’vogar) yashab turgan joydagi sudga beriladi.

Alohida toifadagi jinoyat ishlarini yuritish – alohida kategoriyadagi jinoyat ishlarini dastlabki tergovda va sud jarayonida yuritishning maxsus tartibi. Bunga voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi to‘g‘risidagi ishlar; tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash bilan bog‘liq ishlar; yarashuv borasidagi ishlar; sudgacha bo‘lgan ish yurituvida amnistiya aktini qo‘llash bilan bog‘liq ishlar kiradi.

Alohida fikr – hay’atda ozchilik ovozga ega bo‘lgan sud`yaning bevosita maslahatxonada yozma bayon qiladigan va ishga ilova qilinadigan fikri.

которого установлен особый порядок учета, хранения и использования.

Особое производство – является одним из видов гражданского судопроизводства, под которым понимается порядок установления бесспорных дел (фактов), предусмотренных законом. В делах, рассматриваемых в особом производстве, отсутствует спор о праве и тем самым данный порядок отличается от искового производства. В порядке особого производства рассматриваются дела об установлении юридических фактов; о признании гражданина безвестно отсутствующим и объявлении гражданина умершим; о признании гражданина ограниченно дееспособным или недееспособным; о госпитализации в психиатрический стационар в недобровольном порядке; признание имущества (вещи) бесхозяйным; о восстановлении прав по утраченным документам на предъявителя (вызывное производство).

Производство по отдельным категориям уголовных дел – особый порядок производства предварительного расследования и судебного разбирательства по отдельным категориям уголовных дел: по делам о преступлениях несовершеннолетних, о применении принудительных мер медицинского характера, примирении, приме не ma акта амнистии на стадии досудебного производства.

Особое мнение – письменно изложенное мнение судьи, оставшегося в меньшинстве при коллегальном голосовании, которое составляется непосредсвенно в совещатель-

Amnistiya (yun. Amnestia – kechirish, gunohidan o‘tish) – mal davlat hokimiyati organining xususiy akti, ayrim shaxslarning jinoiy jazodan ozod qilish, jinoyat ishini bekor etish yoki jazoni yengillashtirish to‘g‘risidagi qarori. A. Jinoyat va b. Huquqbuzarliklarni sodir etgan shaxslarni jazodan to‘la yoki qisman ozod etish, tayinlangan jazo turini yengilrog‘I b-n almashtirish to‘g‘risidagi insonparvarlikni namoyish qiluvchi farmoyishdir. O‘zR Kons. 80-m.ga ko‘ra, O‘zR Prezidenti A. To‘g‘risidagi hujjatlarni O‘zR Oliy Majlisining Senatiga takdim etadi. O‘zR sudlari tomonidan hukm qilingan shaxslarga nisbatan amnistiya to‘g‘risidagi hujjatlarni qabul qilish Senatning mutlaq vakolatiga kiradi.

Amnistiya aktini qo‘llash – sudning e’lon qilingan amnistiya aktini (aktlarini) qo‘llagan holda shaxsni javobgarlikdan yoki jazodan to‘liq yoxud yoki qisman ozod qilishga yoxud jazoni yengilrog‘I bilan almashtirishga qaratilgan vakolati.

Anatomik belgilar – odam tashqi qiyofasi va ko‘rinishining alohida guruhlarini tashkil etuvchi insonning tug‘ma belgilari yig‘insididir (masalan, bo‘yi, gavdasi, boshi, bosh suyagi, va boshqalar).

Aniqlangan (konkretlashtirilgan) qasd – sub’ekt kelib chiqishi mumkin bo‘lgan zararning hajmi va xususiyati to‘g‘risida aniq tasavvurga ega bo‘lib, muayyan ijtimoiy xavfli oqibatlarning kelib chiqishini oldin malga‘ra olishi, qandaydir jinoiy natijaga erishishni istashi.

ной комнате и приобщается к делу.

Амнистия (гр. Amnestia – забвение, прощение) – частный акт высшего органа государственной власти об освобождении от уголовного наказания, прекращении уголовного дела либо смягчении наказания в отношении некоторых лиц. А. – есть акт гуманизма, человечности, который полностью или частично освобождает лиц, совершивших преступления и иные правонарушения от наказания, заменяет наказание более мягким видом наказания. Согласно, ст. 80 Конституции РУз., Президент РУз. Представляет документы об А. в Сенат Олий Мажлиса РУз. Принятие документов об амнистии осужденных лиц является ис malчительным полномочием Сената.

Применение акта амнистии – полномочия суда, направленные на полное или частичное освобождение от уголовной ответственности или наказания либо его замена, либо замена наказания более мягким на основе объявленного акта амнистии.

Анатомические признаки – совокупность прирожденных признаков составляющих отдельные группы внешнего облика и внешности человека (например, рост, телосложение, голова, череп и другие).

Определенный (конкретизированный) умысел – субъект, имея четкое представление о характере и объеме возможного вреда, предвидит наступление определенных общественно опасных последствий, желает достижения какого-то одного конкретного

Aniqlanmagan (konkretlashtirilmagan) qasd – aybdorning o‘zi sodir etayotgan qilmi – shi oqibatlari to‘g‘risida umumiy tasavvurga ega bo‘lishi, ya’ni ularning individual aniqlangan bo‘lmaganligi, yetkaziladigan zararning hajmi va xususiyati konkret bo‘lmasligi.

преступного результата.

Неопределенный (неконкретизированный) умысел – характеризуется тем, что у виновного имеется общее представление о последствиях совершаемого им деяния, т.е. индивидуально они не определены, объем, характер причиняемого ущерба не конкретизирован.

Anklav (lot. Inclavo – qulflayman) – bir davlat hududining boshqa bir davlat yoki davlatlar hududi bilan to‘laligicha o‘rab olingan qismi.

Анклав (лат. Inclavo – закрываю, вещаю замок) – часть территории одного государства, полностью окруженная территорией одного или нескольких государств.

Anneksiya (lot. Annexio – birlashtirish, qo‘shib olish) – bir davlat hududini (yoki uning bir qismini) – boshqa davlat tomonidan zo‘ravonlik bilan egallab olish yoki o‘z davlatiga qo‘shib olish siyosati, agressiya ko‘rinishlaridan biri. Xalq yoki qavmlarni o‘zga davlat chegaralarida zo‘rlik ishlatib ushlab turish.

Аннексия (от лат. Annexio – присоединение) – насильственное присоединение территории другого государства. Международное право запрещает А. как нарушение принципов территориальной целостности, неприкосновенности и нерушимости государственных границ.

Aparteid (Afrika burlari tilidan apartheid – alohida yashash) – davlat aholisining irqiy belgilari bo‘yicha ajratishga yo‘naltirilgan irqiy siyosat. A. Irqiy kamsitishning keskin shakllaridan biri bo‘lib, irqiga ko‘ra davlat aholisi guruhining huquqlari boshqa aholi guruhlariga nisbatan kamsitiladi, ular siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va fuqarolik huquqlaridan mahrum qilinadilar. Bir irqning ikkinchi bir irq ustidan hukmronligini o‘rnatish va ushlab turish hamda ularga doimiy ravishda zulm o‘tkazish uchun aholi maxsus ajratilgan joylar (rezervatsiyalar)da saklanadi.

Апартеид (на африканск. Apartheid – раздельное проживание, разделение, обособление) – политический режим, основывающийся на дискриминации населения по национальным или расовым признакам. Это одна из наиболее жестоких форм расовой дискриминации основывающийся на официальном провозглашении и закреплении преимуществ и привилегий одной части населения по отношению к другой. Представители дискриминируемых групп нередко помещаются на территории, отведенной для насильственного поселения жителей, подвергающихся дискриминации.

Apellyatsiya – qonuniy kuchga kirmagan sud hukmi, ajrim va qaror-

Апелляция – правовой институт, регулирующий отношения,

lari qonuniyligi, asosligi va adolatliligini tekshirishiga oid munosabatlarni tartibga soluvchi huquq instituti. A. – lotincha “appelatio” so‘zidan olingan bo‘lib, “murojaat” degan ma’noni anglatib, birinchi instantsiya sudining hal qiluv qarorlari va ajrimlarini qayta tekshirish sanalib, fuqarolik ishlari bo‘yicha sudning hal qiluv qarori chiqqan kundan e’tiboran yigirma kun ichida taraflar va ishda ishtirok etishga jalb qilingan shaxslar hal qiluv qarori ustidan apellyatsiya shikoyati berishlari, prokuror protest keltirishi mumkin. A. Shikoyatlari va protestlari apellyatsiya instantsiyasi nomiga yoziladi, lekin hal qiluv qarori chiqargan sudga beriladi.

Apellyatsiya instansiyasi ajrimi – ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirishlari va prokurorning fikri tinglab bo‘linganidan keyin apellyatsiya instantsiyasi sudi ajrim chiqarish uchun maslahatxonaga chiqadi. Apellyatsiya instantsiyasi sudining ajrimi ish ko‘rilganidan keyin darhol chiqariladi.

Apellyatsiya protesti – jinoyat ishlari bo‘yicha qonuniy kuchga kirmagan hukm ustidan shikoyat hukm qarori qaysi shaxslarning manfaatiga taalluqli bo‘lsa, shu shaxslar tomonidan, ya’ni mahkum, oqlangan shaxs, jabrlanuvchi, fuqaroviy da’vogar, fuqaroviy javobgar hamda tegishincha bu shaxslarning himoyachilari va vakillari tomonidan beriladi hamda u apellyatsiya shikoyati deb ataladi. A.p. – fuqarolik ishlari bo‘yicha sudning hal qiluv qarori chiqqan kundan e’tiboran yigirma kun ichida prokuror tomonidan keltiriladigan (e’tiroznoma) protest keltirish. Ushbu protest sudning qarori qonuniy, asosli

касающиеся проверки законности, обоснованности и справедливости не вступивших в законную силу приговоров, определений и постановлений. А. – взято с латинского слова “appelatio” и означает “обращение”, является институтом пересмотра решений и определений суда первой инстанции. Решение суда по гражданским делам может быть обжаловано в апелляционном порядке сторонами и другими лицами, привлеченными к участию в деле, и опротестовано прокурором в течение двадцати дней со дня вынесения судом решения.

Определение апелляционной инстанции – после выслушивания объяснений лиц, участвующих в деле и мнения прокурора суд апелляционной инстанции для вынесения судебного определения удаляется в совещательную комнату. Определение апелляционной инстанции выносится немедленно после рассмотрения дела.

Апелляционный протест – процессуальное обращение прокурора, направленное на опротестование не вступивших в законную силу приговоров, определений и постановлений суда первой инстанции, а также определений суда по рассмотрению воспросов на досудебных стадиях. А.п. – принесение протеста (возражения) прокурором на решение суда по гражданским делам в течение двадцати дней с момента его вынесения. Данный протест является основанием для проверки законности, обоснованности и справедливости постановления суда. Прокурор вне

va adolatli ekanligi yuzasidan tekshiruv o‘tkazish uchun asos bo‘ladi. Prokuror muayyan ishda ishtirok etganetmaganligidan qat’I nazar, sudning hal qiluv qarori, ajrimi, qarori ustidan o‘z vakolati doirasida protest keltiradi.

Apellyatsiya shikoyati – ishda ishtirok etuvchi shaxslar sudning qarori qonuniy, asosli va adolatli ekanligini tekshirish haqidagi shikoyat (ariza) bilan sudning hal qiluv qarori chiqqan kundan e’tiboran yigirma kun ichida qonunda belgilangan tartibdagi murojaatidir.

qaratilgan choralar tizimi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asosan Prezident Davlat xavfsizlik xizmati shakllantiradi.

зависимости государства. В соответствии с Конституцией Республики Узбекистан Президент формирует Службу государственной безопасности Республики Узбекистан.

Davlat hokimiyati – bu davlat apparatining davlat majburlovi orqali ta’minlanadigan alohida individlar, ijtimoiy guruhlar va butun jamiyat xatti-harakatini davlat nomidan qabul qilinadigan umumahamiyatli qonun-qoidalarga bo‘ysundirish layoqatidir.

Государственная власть – это отдельные индивиды, социальные группы и способность подчинения правилам всеобщего значения, принимаемым от имени государства действий всего общества.

Davlat huquqi – “Konstitutsiyaviy huquq” atamasining o‘xshashi. Ayrim mamlakatlarda huquqning alohida va yetakchi tarmog‘i bo‘lib, mamlakatning sotsial-iqtisodiy, siyosiy, ma’muriy tuzilishi asoslarini, fuqarolarning asosiy huquq, erkinlik va burchlarini, davlat organlari tizimini o‘rnatuvchi huquqiy normalar yig‘indisidan iborat bo‘ladi.

Государственное право – тождественно с понятием «Конституционного права». Термин г.п. используется в немецкоязычных и др. странах для обозначения отрасли права, регулирующую совокупность государственно-правовых норм, закрепляющих основы общественного строя и политики, правового положения граждан, их права, свободы и обязанности, устройство и систему государственных органов власти.

Davlatga xoinlik qilish – mohiyatiga ko‘ra sotqinlik harakati. O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining davlatimizning tashqi dushmanlari bo‘lgan chet davlat, chet el tashkiloti yoki uning vakillari bilan birlalikdagi O‘zbekiston Respublikasi suvereniteti, hududiy daxlsizligi, mudofaa qobiliyati, iqtisodiyotiga zarar yetkazishga qaratilgan faoliyati.

Измена государству – по сути, является актом предательства. Это деятельность гражданина РУз., выражаемая в совершении деяния в ущерб суверенитету, территориальной неприкосновенности, безопасности, обороноспособности, экономике Республики Узбекистан путем шпионажа, выдачи государственных секретов или иного оказания помощи иностранному государству, иностранной организации или их представителям в проведении враждебной деятельности против Республики Узбекистан.

Davlatchilik – siyosiy adabiyotlarda umuman davlatning sinonimi sifatida ishlatilib, davlat yoki uning tarixiy tipi, jamiyatdagi siyosiy tash-

Государственность – термин, который в политической литературе употребляется как синоним государства вообще, государства то-

kilotlarning yoki davlatning tarixiy rivojlanishidagi bir bosqichi.

Davomli jinoyat – umumiy qasd bilan qamrab olingan va yagona maqsadga yo‘naltirilgan bir jinoyat tarkibini tashkil qiluvchi bir-biriga o‘xshash bir necha jinoiy qilmishlardan iborat bo‘lgan jinoyat.

Daktiloskopiya – (lotinchadan olingan bo‘lib, “daktilos” – barmoq, “skopeo” – ko‘rish, o‘rganish degan ma’nolarni anglatadi) qo‘l barmoqlarining bo‘g‘in teri izlari asosida shaxsni aniqlash usuli hisoblanadi.

Dalil – taraflarning talablari va e'tirozlarini asoslaydigan holatlar mavjudligi yoki mavjud emasligini sud va boshqa organlarning qonunda belgilangan tartibda aniqlashiga asos bo‘ladigan har qanday faktik ma’lumot va ishni to‘g‘ri hal qilish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan boshqa holatlar bo‘yicha dalil hisoblanadi.

Dalillar taqdim qilish – har bir taraf o‘zining talablari va e'tirozlariga asos qilib ko‘rsatgan holatlarni isbotlashi shart. Sud qanday holatlar ish uchun ahamiyatga ega ekanligini, ularni taraflardan qaysi biri isbotlashi kerakligini aniqlaydi, hatto taraflar bu holatlarni dalil qilib keltirmagan bo‘lsalar ham, ularni muhokamaga qo‘yadi. Dalillar taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar tomonidan taqdim etiladi. Sud ularga qo‘shimcha dalillar taqdim qilishni taklif etishi mumkin. Agar qo‘shimcha dalillar taqdim etish taraflar va ishda ishtirok etuvchi bosh-

го или иного исторического типа, а также для обозначения какого-либо этапа в развитии государства данного исторического типа или политической организации общества.

Продолжаемые преступления – это такие противоправные общественно опасные деяния, которые характеризуются совершением ряда тождественных действий, направленных к общей цели и охватываемые единым умыслом.

Дактилоскопия – (в переводе с латинского слова «daktilos» – палец и греческого слова «skopeo» – видеть, изучать) это метод определения личности по кожным следам фаланг пальцев рук.

Доказательство – доказательствами по гражданскому делу являются любые фактические данные, на основе которых в определенном законом порядке суд устанавливает наличие или отсутствие обстоятельств, обосновывающих требования и возражения сторон, и иные обстоятельства, имеющие значение для правильного разрешения дела.

Предоставление доказательств – каждая сторона обязана доказать те обстоятельства, на которые она ссылается как на основание своих требований и возражений. Доказательства представляются сторонами и другими лицами, участвующими в деле. Суд может предложить им представить дополнительные доказательства. В случае, когда представление дополнительных доказательств для сторон и других лиц, участвующих в деле, затруднительно, суд по их ходатайству оказывает им содействие в собирании доказа-

qa shaxslar uchun qiyinchilik tug‘dirsa, sud ularning iltimosnomasiga ko‘ra dalillar to‘plashda ularga yordam ko‘rsatadi.

Dalillarga baho berish – sud dalillarga ishning hamma holatlarini jamlab, ularni sud majlisida qonunga amal qilgan holda, har taraflama, to‘liq va xolis ko‘rib chiqish asosida ichki ishonch bo‘yicha baho beradi. Har bir dalil ishga daxldorligi, maqbulligi va ishonchliligi nuqtai nazaridan, dalillarning hammasi esa, yetarli darajada to‘plangan yoki to‘planmaganligi nuqtai nazaridan baholanishi lozim. Agar tekshirish natijasida dalilning haqiqatga to‘g‘ri kelishi aniqlansa, u ishonchli deb e'tirof etiladi. Hech qanday dalil sud uchun oldindan belgilab qo‘yilgan kuchga ega emas.

Dalillarni baholash – surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud ishidagi barcha holatlarning sinchikovlik bilan to‘la, har tomonlama va xolisona ko‘rib chiqishga asoslangan holda qonunga va huquqiy ongga amal qilib, o‘zlarining ichki ishonchlari bo‘yicha dalillarga baho berishi. Har bir dalil ishga aloqadorligi, maqbulligi va ishonchliligi nuqtai nazaridan baholanadi.

Dalillarni tekshirish – ish bo‘yicha qabul qilinadigan qaror sinchkovlik bilan to‘la, har tomonlama va xolisona tekshirilgan dalillarga asoslangan bo‘lishi lozim. Tekshiruv qo‘shimcha dalillarni to‘plashdan iborat bo‘lib, ular tekshirilayotgan dalillarni tasdiqlashi yoki rad etishi mumkin.

тельств.

Оценка доказательств – суд оценивает доказательства по своему внутреннему убеждению, основанному на всестороннем, полном и беспристрастном рассмотрении в судебном заседании всех обстоятельств дела в их совокупности, руководствуясь законом. Каждое из доказательств подлежит оценке с точки зрения относимости, допустимости и достоверности, а совокупность доказательств с точки зрения их достаточности. Доказательство признается достоверным, если в результате проверки выясняется, что оно соответствует действительности. Никакие доказательства не имеют для суда заранее установленной силы.

Оценка доказательств – дознаватель, следователь, прокурор и суд оценивает доказательства по своему внутренному убеждению, основанному на тщательном, всестороннем, полном и объективном исследовании всех обстоятельств дела, руководствуясь законом и правосознанием. Каждое из доказательств подлежит оценке с точки зрения относительности, допустимости и достоверности.

Проверка доказательств – это деятельность дознавателя, следователя, прокурора и суда по тщательному, всестороннему и объективному определению достоверности фактических данных и доброкачественности источников их получения для правильного установления обстоятельств уголовного дела.

Dalillarni to‘plash – daliliy ahamiyatga ega ma’lumotlarni aniqlash, talab qilish, qabul qilish va protsessual mustahkamlashga qaratilgan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning qonunda ko‘rsatilgan protsessual harakatlari.

Dastlabki sud muhokamasi – prokuror, advokat va boshqa ish natijasidan manfaatdor taraflar ishtirokida ayblanuvchini sudga berish bilan bog‘liq masalalar muhokamasi.

Dastlabki tergov – jinoyat protsessining bir bosqichi hisoblanadi. Jinoyat ishini qo‘zg‘atishdan boshlanib, uni sudga yuborish bilan bog‘liq dastlabki tergov organlarining protsessual faoliyati.

Dastlabki tergovni to‘xtatish – tergov harakatlarini davom ettirishga imkoniyat bermaydigan holatlar dastlabki tergovni davom ettirishga imkoniyat bermaydi.

Da’vo – sudga murojaat qilishning protsessual shakli. Shaxslar (jismoniy va yuridik) ning huquq va qonuniy manfaatlari buzilishi natijasida ushbu huquqlarni himoya qilish (tiklash) maqsadida vujudga keladigan jarayon. Da’vo ikki element: da’vo predmeti va da’vo asosidan iborat. Da’voli ishlar undirish va tan olish to‘g‘risidagi da’volarga bo‘linadi.

Da’vo arizasi – buzilgan huquq va manfaatlarni himoya qilish maqsadida sudga murojaat qilishning protsessual shakli (protsessual hujjat). Arizada quyidagilar ko‘rsatilishi

Собирание доказательств – это процесс осуществления дознавателем, следователем, прокурором, судом предусмотренных законом процессуальных действий, направленных на обнаружение, истребование, приём, получение и процессуальное закрепление доказательственной информации.

Предварительное слушание – форма назначения уголовного дела к судебному разбирательству, в ходе которой вопросы предания суду обвиняемого решаются в судебном слушании при участии прокурора, защитника и других заинтересованных в исходе дела сторон.

Предварительное следствие – это процессуальное деятельность органов предварительного следствия, начинающаяся с возбуждения уголовного дела и оканчивающаяся направлением его в суд.

Приостановление предварительного следствия – это приостанавление производства по уголовному делу при наличии обстоятельств, непосредственно препятствующих осуществлению предварительного следствия.

Иск – процессуальная форма обращения в суд. Процедура, возникающая в целях защиты (восстановления) нарушенных прав и законных интересов лиц (физических и юридических). Иск состоит из двух элементов: предмет и основания иска. Исковые дела делятся на иски о взыскания и иски признания.

Исковое заявление – процессуальная форма обращения в суд в целях защиты нарушенных прав и интересов (процессуальный акт). В заявлении должны быть указа-

lozim: 1) ariza berilayotgan sudning nomi; 2) da’vogarning nomi (familiyasi, ismi va otasining ismi) va yashash joyi, agar da’vogar tashkilot bo‘lsa, uning qaerda joylashganligi, shuningdek agar ariza vakil tomonidan berilayotgan bo‘lsa, vakilning nomi (familiyasi, ismi va otasining ismi) va manzili; 3) javobgarning nomi (familiyasi, ismi va otasining ismi), yashash joyi yoki agar javobgar tashkilot bo‘lsa, uning qaerda joylashganligi; 4) da’vogarning talabi; 5) agar da’voni baholash lozim bo‘lsa, uning bahosi; 6) da’vogar o‘zining talablariga asos qilib ko‘rsatayotgan holatlar va bu holatlarni tasdiqlaydigan dalillar; 7) arizaga ilova qilingan hujjatlarning ro‘yxati. Ariza da’vogar yoki uning vakili tomonidan imzolanadi. Agar ariza vakil tomonidan berilgan bo‘lsa, arizaga ishonchnoma yoki uning vakolatini tasdiqlovchi boshqa hujjat ilova qilinishi lozim.

Da’vo muddati – shaxs o‘zining buzilgan huquqini da’vo qo‘zg‘atish yo‘li bilan himoya qilishi mumkin bo‘lgan muddat. Umumiy da’vo muddati – uch yil. Ayrim turdagi talablar uchun qonunlarda umumiy da’vo muddatiga qaraganda qisqartirilgan yoki uzaytirilgan maxsus da’vo muddatlari belgilanishi mumkin. Qonun bilan belgilangan da’vo muddati imperativ (qat'iy) tusda bo‘lib, da’vo muddatlari va ularni hisoblash tartibi taraflarning kelishuvi bilan o‘zgartirilishi mumkin emas. Buzilgan huquqni himoya qilish talabi da’vo muddatining o‘tganligidan qat’i nazar sudda ko‘rib chiqish

ны: 1) наименование суда, которому подается заявление; 2) наименование (фамилия, имя, отчество) истца и его местожительство, а если истцом является организация - ее наименование и местонахождение, а также наименование (фамилия, имя, отчество) представителя и его адрес, если заявление подается представителем; 3) наименование (фамилия, имя, отчество) ответчика, его местожительство или, если ответчиком является организация, - ее наименование и местонахождение; 4) требование истца; 5) цена иска, если иск подлежит оценке; 6) обстоятельства, на которых истец основывает свое требование, и доказательства, подтверждающие изложенные истцом обстоятельства; 7) перечень прилагаемых к заявлению документов. Заявление подписывается истцом или его представителем. Если заявление подано представителем, к нему должна быть приложена доверенность или иной документ, удостоверяющий его полномочия.

Исковая давность – это срок, в пределах которого лицо может защитить свое нарушенное право путем предъявления иска. Общий срок исковой давности - три года. Для отдельных видов требований законодательными актами могут устанавливаться специальные сроки исковой давности, сокращенные или более длительные по сравнению с общим сроком. Требование о защите нарушенного права принимается к рассмотрению судом независимо от истечения срока исковой давности. Течение срока исковой давности начинается со дня, когда лицо узнало

uchun qabul qilinadi. Da’vo muddati shaxs o‘zining huquqi buzilganligini bilgan yoki bilishi lozim bo‘lgan kundan o‘ta boshlaydi.

Da’vo predmeti – da’vo elementlaridan biri hisoblanib, sudga murojaat qiluvchi (da’vogar)ning sud orqali talab qilgan talabi (narsasi).

Da’vogar – fuqarolik protsessining taraflaridan biri, ishda ishtirok etuvchi shaxs. D. – o‘zining buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlari yoxud qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida sudga murojaat etgan yoinki manfaatini ko‘zlab ish qo‘zg‘atilgan shaxs.

De-fakto (de facto) tan olish – bir davlat tomonidan ikkinchi davlatni rasmiy tan olish shakllaridan biri. Bunday shaklda tan olish cheklangan va to‘liqsiz bo‘ladi Ko‘proq u to‘laqonli tan olish, ya’ni de – yure shakliga o‘tish jarayonida bir bosqich rolini o‘ynaydi. De – fakto tan olish davlatlar o‘rtasida faqat konsullik munosabat o‘rnatish, ma’lum savdo qilish, ayrim jamoat tashkilotlari o‘rtasida cheklangan aloqalar olib borish imkonini beradi.

De-yure (de jure) tan olish – davlatlar o‘rtasida bir – birini rasmiy tan olishning shakllaridan bo‘lib, to‘liq, har tomonlama munosabatlar o‘rnatish imkonini tug‘diradi. Masalan, u diplomatik va konsullik munosabatlar o‘rnatishdan tortib, to bir – birlarining ichki huquqiy tizimlarini tan olish va qonunchiliklari hamda sudlarining qarorlarini qo‘llashgacha bo‘lgan kompleks – huquqiy imkoniyatlardan foydalanish imkonini beradi.

Dezertirlik – harbiy xizmatdan

или должно было узнать о нарушении своего права. Изъятия из этого правила устанавливаются настоящим Кодексом и иными законами.

Предмет иска – является одним из элементов иска, требование (вещь) обращающего в суд лица (истца).

Истец – одна из сторон гражданского процесса, лицо, участвующее в деле. И. – лицо, обращающееся в суд в целях защиты своих нарушенных или оспариваемых прав либо охраняемых законом интересов или в интересах которого возбуждено дело.

Признание де-факто (de facto) – одна из форм официального признания. Это признание ограниченное, неполное, не окончательное, скорее переходное к признанию de jure. Оно, как и признание de jure, также влечет юридические последствия, но в меньшем объёме: например, могут быть установлены лишь консульские отношения.

Признание де-юре (de jure) – одна из форм официального признания. Это полное, окончательное признание, влекущее за собой весь комплекс правовых последствий: от возможности установления дипломатических и консульских отношений до признания правовой системы и применения законодательства признаваемого государства и исполнения вынесенных его судами решений. Считается, что однажды выраженное юридическое признание отозвано быть не может, хотя известны случаи и иного.

Дезертирство – выражается в

butunlay bo‘yin tovlash maqsadida harbiy qism yoki xizmat joyini o‘z-boshimchalik bilan tashlab ketish, shuningdek, shu maqsadda xizmat joyiga yetib kelmaslik.

самовольном оставлении части или места службы с целью вовсе уклониться от военной службы, а равно неявке с этой целью на службу.

Deklarant – tovarlarni olib o‘tuvchi, tovarlar va transport vositalarini o‘z nomidan deklaratsiyalovchi, ko‘rsatuvchi va taqdim etuvchi shaxs yoki tovar olib o‘tuvchi shaxs nomidan ish olib borayotgan bojxona brokeri.

Декларант – лицо, перемещающее товары, декларирующее, представляющее и предъявляющее товары и транспортные средства от собственного имени, или таможенный брокер, выступающий от имени лица, перемещающего товары.

Deklaratsiya – siyosiy-huquqiy akt nomi. Deklaratsiyada ma’lum voqealarga tantanali ruh beriladi. 1990 yil 20 iyulda O‘zbekiston ittifoq tarkibida bo‘lgan vaqtda, mustaqillik uchun asos solgan hujjat – “Mustaqillik deklaratsiyasi” Oliy Kengash tomonidan qabul qilingan.

Декларация – политико-юридический акт, имеющий особо важное значение для государства. Так, для судьбы Узбекистана несомненно важное значение имело, принятая Верховным Советом 20 июня 1990 года "Декларация о суверенитете" Узбекистана.

Demokratiya (yunon. demokratia – xalq hokimiyati, demos – xalq va kratos – hokimiyat) – xalq hokimiyatchiligi. D. xalqning davlat organlarini tuzish, ular ishida ishtirok etish, davlat organlari ishini tashkil etish, mamlakatda inson huquqlarini ta’minlash orqali namoyon bo‘ladi. U davlat bilan inson munosabatlarini belgilaydi. D. bevosita va vakillik d.si shaklida bo‘ladi. D. hamma narsada xohlagancha erkinlik bo‘lmasdan, qonunga asoslangan erkinlikdir. D.ning ajralmas qismi intizom, qonunlarni hurmat qilish, boshqalarning haq-huquqini himoya qilishdir.

Демократия – народовластие. Д. основана на признании таких принципов, как верховенство конституции и законов, народовластие и политический плюрализм, свобода и равенство граждан, неотчуждаемость прав человека. В современном обществе означает власть большинства при защите прав меньшинства, осуществление выборности основных государственных органов, наличие прав и политических свобод граждан, их равноправие, верховенство закона, конституционализм, разделение властей. Различают институты непосредственной и представительной д.

Dengiz huquqi – davlat va jismoniy shaxslarning dengizdan foydalanish va egalik qilish, davlatlararo savdo va ishlab chiqarish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soladigan huquq sohasi.

Морское право – давлат ва жисмоний шахсларнинг денгиздан фойдаланиш ва эгалик қилиш, давлатлараро савдо ва ишлаб чиқариш билан боғлиқ муносабатларни тартибга соладиган ҳуқуқ соҳаси.

Deputat – davlat hokimiyati vakillik organlarida ish olib boruvchi xalq vakilidir. U saylov yo‘li bilan saylanib, xalqdan tegishli organlarda ish olib borish uchun vakolat oladi. D.lar ma’lum muddatga saylanadi. Respublikamizda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari d.lari besh yil muddatga saylanadi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi d.ligiga 25 yoshga, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari d.ligiga 21 yoshga to‘lgan O‘zbekiston fuqarolari saylanadi.

Deputat maqomi – davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining huquqiy holati bo‘lib, u deputatlik mandatining siyosiy-huquqiy tabiati, uning yuzaga kelishi, to‘xtatilishi, amalda bo‘lish muddati, deputatlar vakolati, ular faoliyatining kafolatlanganligi, shuningdek deputatlarning hisobdorligi, nazorat qilinishi va javobgarligi b-n bog‘langan ijtimoiy munosabatlarni boshqaradigan huquqiy normalar majmui b-n aniqlanadi. D.m.ni mustahkamlovchi huquqiy normalar Kons.larda, maxsus qonunlar, palatalar reglamentlarida beriladi. 2004 y. 2 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a’zosining maqomi to‘g‘risida”, “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to‘g‘risida” va “Xalq deputatlari mahalliy Kengashi deputatini, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatini va Senati a’zosini chaqirib olish to‘g‘risida”gi O‘zR Qonunlari qabul qilindi.

Депутат (лат. deputatus – посланный) лицо, избранное в представительный орган государства. Д. избирается избирателями соответствующего избирательного округа в представительный орган государственной власти на основе всеобщего равного и прямого избирательного права при тайном голосовании. Д. избирается на определенный срок. Срок полномочий д. Законодательной палаты Олий Мажлиса, а также д. районных, областных и городских Кенгашей – 5 лет.

Статус депутата – правовое положение депутатов представительных органов государственной власти; определяется совокупностью норм, которые регулируют общественные отношения, связанные с политико-правовой природой депутатского мандата, его возникновением, прекращением и сроком действия, полномочиями депутатов, гарантиями их деятельности, а также подотчетностью, подконтрольностью и ответственностью депутатов. Правовые нормы, закрепляющие С.д., содержатся в конституциях, специальных законах и регламентах палат. С.д. регламентируется Законом Республики Узбекистан «О статусе депутата Законодательной палаты и члена Сената Олий Мажлиса Республики Узбекистан,» принятом 2 декабря 2004 г. и Законом Республики Узбекистан «О статусе депутата областного, районного и городского Кенгаша народных депутатов». Порядок отзыва депутата областного, районного и городского Кенгаша народных депутатов, депутата Законодательной

Deputatlar palatasi – Gretsiya parlamentining, shuningdek Boliviya, Braziliya, Venesuela, Dominikan Respublikasi, Italiya, Kolumbiya, Meksika, Nikaragua, Ruminiya, Chexiya, Chili parlamenti quyi palatasining nomi. O‘zbekiston Respublikasida Oliy Majlisning qo‘yi palatasi “Qonunchilik palatasi” deb nomlanadi.

Deputatlik daxlsizligi – deputatlarga o‘z deputatlik faoliyatini mustaqil, holi olib borish imkoniyatini yaratadigan kafolatdir. Har bir vakillik organining deputatlari, shu vakillik organlari va u vakolat bergan organ yoki shaxs roziligisiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, qamoqqa olinishi, ishlab turgan vazifasidan bo‘shatilishi, past lavozimga o‘tkazilishi mumkin emas.

Deputatlik mandati (lot. Mandatum – topshiriq) – birorta vakillik muassasasi deputati vakolatlarining qonuniyligini, deputat vakolatlari, huquq va majburiyatlari hajmini tasdiqlovchi hujjat, shuningdek parlament yoki boshqa vakillik hokimiyati organi deputati zimmasiga yuklatiladigan ommaviy vazifa, uning mazmuni (mandat xarakteri) Kons. va b. konstitutsiyaviy-huquqiy hujjatlar bilan belgilanadi.

Diplomatik akt – xalqaro huquq sub'ektlari bo‘lmish tashqi munosa-

палаты Олий Мажлиса Республики Узбекистан и члена Сената Олий Мажлиса регулируется соответствующим законом, принятом 02.12.2004 г.

Палата депутатов – название нижних палат парламентов Греции, Италии, Бразилии, Эфиопии, Венесуэлы, Боливии, Доминиканской Республики, Мексики, Никарагуа; в Люксембурге – название однопалатного парламента. Нижняя палата Олий Мажлиса Республики Узбекистан называется Законодательной палатой.

Неприкосновенность депутата – демократический принцип, согласно которому депутат представительного органа государственной власти не может быть привлечен к уголовной ответственности без согласия данного органа. Ст. 88 Конституции закрепляет, что депутаты не могут быть привлечены к уголовной ответственности, задержаны, заключены под стражу или подвергнуты мерам административного взыскания, налагаемого в судебном порядке, без согласия соответственно Законодательной палаты или Сената.

Мандат депутата (от лат. Mandatum – поручение) – документ, удостоверяющий законность и объем полномочий депутата, а также публичная функция, которая возлагается на депутата парламента или иного представительного органа власти выборами и содержание которой (характер М.) определяется конституцией и иными конституционно-правовыми актами.

Акт дипломатический – действие или заявление органов внеш-

batlar organlari va mansabdor shaxslarning xalqaro siyosiy va huquqiy oqibatlarga keltiruvchi harakati yoki bayonoti. Xalqaro amaliyotda diplomatik aktning bir necha turlari ko‘zda tutilgan (diplomatik munosabatlarni o‘rnatish, ishonch yorlig‘ini topshirish, pozitsiyani yorituvchi bayonotlar va hokazo). Ularning hayotga tatbiq qilinishi halqaro an'analar, xalqaro shartnomalar, protokol qoidalari va diplomatik xizmat masalalari bo‘yicha davlatning ichki huquqiy me'yorlari bilan belgilanadi. Diplomatik akt deganda yozma diplomatik hujjatlar (shartnoma, nota, memorandum) ham anglanadi. Diplomatik akt mazmuni va shakliga ko‘ra zamonaviy xalqaro huquq va amaliyot talablariga to‘la muvofiq bo‘lishi lozim. Mazkur talablarga javob bermaydigan diplomatik akt turlaridan foydalanish qonunga xilofdir. Masalan, zamonaviy diplomatik huquq, ayrim protokol masalalarini hisobga olmaganda, diplomatik korpusning ommaviy chiqishlariga yo‘l qo‘ymaydi.

Diplomatik boshpana – biron bir shaxsga siyosiy sabablarga ko‘ra ta’qib qilinganda xorijiy diplomatik vakolatxona yoki konsul vakolatxonasida yashirinish imkonini berish. Xalqaro huquqqa muvofiq, diplomatik yoki konsullik vakolatxona binolarining daxlsizligi, yashab turgan davlat tomonidan sodir etgan qonunbuzarliklari uchun ta’qib qilinayotgan shaxslarga boshpana berish huquqini bermaydi. Diplomatik vakolatxonaning rasmiy faoliyatiga to‘g‘ri kelmaydigan maqsadlarda diplo-

них сношений и должностных лиц субъектов международного права, влекущие за собой международные политические или правовые последствия. Международная практика предусматривает различные виды дипломатических актов (установление дипломатических отношений, вручение верительных грамот, заявление с изложением позиций и т.д.). Их применение определяется международными обычаями, международными договорами, протокольными правилами и нормами внутригосударственного права по вопросам дипломатической службы. Под дипломатическим актом понимаются также письменные дипломатические документы (договор, нота, меморандум). Дипломатический акт, как по содержанию, так и по форме должен находиться в полном соответствии с требованиями современного международного права и практики. Например, современное дипломатическое право не допускает коллективных выступлений дипломатического корпуса, за исключением отдельных протокольных вопросов.

Убежище дипломатическое – предоставление какому-либо лицу возможности укрыться от преследования по политическим мотивам в помещении иностранного дипломатического представительства или консульского представительства. Согласно международному праву, неприкосновенность помещения дипломатического или консульского представительства, не дают право предоставлять в их помещениях убежища лицам, преследуемым властями государ-

matik vakolatxona binolaridan foydalanishni man qiluvchi bu qonun 1961 yil “Diplomatik munosabatlar haqida”gi Vena konventsiyasida o‘z aksini topgan.

Diplomatik himoya – xalqaro huquq asosida muayyan bir davlatning diplomatik vosita yordamida o‘z fuqarolarini himoya bilan ta’minlashi yoki ularning xorijiy davlat tomonidan buzilgan huquq va manfaatlarini tiklashi. Diplomatik himoyaning mazmuni chet el fuqarosiga yetkazilgan zararni qoplash maqsadida huquqlarini ta’minlash yoki tiklash mas’uliyatini amalga oshirishni o‘ziga maqsad qilib qo‘ygan marosimdan tarkib topadi. O‘z fuqarosiga diplomatik himoyani ko‘rsatayotgan davlat boshqa davlatga da’vo yoki yetkazilgan zararni qoplash uchun fuqarolar huquqlarini tiklash yoki ta’minlash to‘g‘risidagi e'tiroz bilan murojaat qiladi.

Diplomatik huquq – tashqi aloqalar davlat organlari maqomi va vazifalariga tegishli xalqaro-huquqiy me’yorlar tizimidir (boshqacha qilib aytganda, davlatlararo munosabatlarni o‘rnatish va amalga oshirishni muvofiqlashtiruvchi tartib). Diplomatik huquqqa diplomatik vakolatxonalar almashinuvi va ularning faoliyatlari natijasida paydo bo‘ladigan davlatlararo aloqalarni tartibga soluvchi me'yorlar, bir davlatdan boshqa davlatga maxsus missiyalarning yuborilishi, davlatlar vakolatxonala-

ства пребывания за совершенные ими правонарушения. Это положение нашло отражение в Венской конвенции о дипломатических сношениях 1961 г., которая запрещает использовать помещения дипломатического представительства в целях, не совместимых с его официальными деяниями.

Защита дипломатическая – защита, которую в соответствии с международным правом, по дипломатическим каналам государство оказывает своим гражданам в целях обеспечения или восстановления их прав и интересов, нарушенных иностранным государством. Защита дипломатическая состоит в выполнении процедуры, имеющей своей целью реализацию ответственности государств за ущерб, нанесенный иностранному гражданину, и обеспечение или восстановление его прав. Государство, оказывающее дипломатическую защиту своему гражданину, заявляет другому государству претензию или протест с требованием возмещения понесенного ущерба, восстановления или обеспечения прав граждан.

Дипломатическое право – система международно-правовых норм, относящихся к статусу и функциям государственных органов внешних сношений (иными словами, регулирующих порядок установления и осуществления межгосударственных контактов). К дипломатическому праву относятся нормы, регулирующие межгосударственные отношения, возникающие в связи с обменом дипломатическими представительствами и их деятельностью, в связи

rining xalqaro tashkilotlarda va xalqaro tashkilotlarning u yoki bu davlatlar hududlarida faoliyat ko‘rsatishi, shuningdek, xalqaro tashkilotlar, ularning mansabdor xodimlari va xizmatchilarning immunitetlari va imtiyozlariga tegishli me'yorlarni hisobga olish kiradi.

с посылкой одним государством в другие специальной миссии, в связи с представительством государств в международных организациях и функционированием международных организаций на территории тех или иных государств, включая нормы, касающиеся привилегий и иммунитетов международных организаций, должностных лиц и служащих.

Diskriminatsiya – (lot. Discriminatio – farqlash) – odatda davlat, yuridik yoki jismoniy shaxs huquqlarining (boshqa davlat, yuridik yoki jismoniy shaxs huquqlariga nisbatan) cheklanishini bildiruvchi umumhuquqiy termin. Demokratik davlatlarning ichki qonunlarida hamda xalqaro huquqda D.ning barcha shakllari taqiqlanadi.

Дискриминация (от лат. Discriminatio – различение) – общеправовой термин, обозначающий обычно ущемление прав государства, юридических или физических лиц (по сравнению с другими государствами, юридическими или физическими лицами). Д. во всех формах запрещается внутренним правом демократических государств, а также международным правом. Термин употребляется в Конституции РУз, ТК РУз. В трудовом праве установление каких-либо ограничений или предоставление преимуществ в области трудовых отношений в зависимости от пола, возраста, расы, национальности, языка, социального происхождения, имущественного и должностного положения, отношения к религии, убеждений, принадлежности к общественным объединениям, а также других обстоятельств, не связанных с деловыми качествами работников, недопустимо и является дискриминацией (ст.6 ТК РУз)

Do‘pposlash – uch yoki undan ortiq marta shaxsga zarba berish. Badanga shikast yetkazmagan holda muttasil ravishda d. orqali qiynash shaklidagi jinoyat. Shuningdek, d. orqali badanga turli darajada shikast

Побои – характеризуются нанесением многократных, т.е. более трех ударов по телу потерпевшего. Это преступление, выражаемое в форме систематического избиения, без причинения телесных

ham yetkazilishi uchraydi. Yetkazilgan shikast darajasiga qarab JKning tegishli moddasida nazarda tutilgan jinoyatlar sodir etilgan deb hisoblash mumkin.

повреждений и истязании. Побои могут причинить и телесные повреждения, в зависимости от степени их тяжести, может наступить ответственность по соответствующим статьям УК.

E e

Evtanaziya – (yunonchadan olingan bo‘lib “eu” – yaxshi, “thanatos” - o‘lim degan ma’noni bildiradi) bemorning iltimosiga muvofiq qanday-dir yo‘llar va vositalar orqali uning yaqinlashib kelayotgan muqarrar o‘lim jarayonini tezlashtirish; jumladan: hayotni ta’minlab turuvchi usullar va vositalarni (sun'iy qon almashtiruvchi, sun'iy buyrak va xokazo) to‘xtatish. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi bo‘yicha tibbiyot xodimlariga evtanaziyani qo‘llash ruxsat etilmagan. Yevropa mamlakatlarida evtanaziyaga ruxsat berishda baxs va munozaralar bo‘lmoqda.

Эвтаназия – (от греч. “eu” – хорошая, “thanatos” – смерть), означает ускорение неизбежной смерти тяжелобольного лица по его просьбе каким-либо способом, в том числе путем выключения средств и способов поддержания жизни искусственным путем (искусственной почки, искусственного обмена крови и т.п.). В законодательстве Республики Узбекистан медицинским работникам запрещено производство эвтаназии. В странах Европы все еще спорят по поводу её разрешения.

Egri qasd – shaxs o‘z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglashi, uning ijtimoiy xavfli oqibatlariga ko‘zi yetishi va ularning yuz berishiga ongli ravishda yo‘l qo‘yishi.

Косвенный умысел – вид умысла, при котором лицо сознает общественную опасность своего действия (бездействия), предвидит реальную возможность наступления общественно опасных последствий, не желает, но сознательно допускает эти последствия либо относится к ним безразлично.

Ekologik monitoring (atrof- muhit monitoringi) – atrof muhit holati ustidan kuzatish, baholash va o‘zgarishlarni bashorat qilishning kompleks tizimi.

Экологический мониторинг (мониторинг окружающей среды) – это комплексная система наблюдений за состоянием окружающей среды, оценки и прогноза изменений.

Ekologik sertifikat – turar-joy, yer uchastkasi va suv ob'ektlarining

Экологический сертификат – это документ, подтверждающий

sifat ekologik xususiyatlarini tasdiqlovchi hujjat.

Ekologik standart – tabiat ob'ektlarining yuridik ahamiyatga ega bo'lgan miqdor yoki sifat ko'rsatkichlari.

Ekologik sug'urta – yuridik shaxs va fuqarolar, ularning mulki ob'ektlari va daromadlarining ekologik va tabiiy ofat, avariya va halokatlardan ixtiyoriy va majburiy davlat sug'urtasi.

Ekologik tizim – tirik organizm va ularning yashash muhitidan tashkil topgan yagona tabiiy yoki tabiiy-antropogen majmua bo'lib, unda tirik va notirik ekologik birliklarning sabab-oqibat aloqalari, moddalar almashuvi va energiya taqsimlanishi orqali o'zaro aloqadorlikda bo'ladilar.

Ekologik xavfsizlik – atrof tabiiy muhit holatini organizmlarning hayotiy zarur ehtiyojlariga javob bera olishi yoki insonlar uchun sog'lom, toza va qulay tabiiy sharoitga ega atrof-muhit holati.

Ekologik hudud – yer hududining ekologik sharoitlari yaqinligi, uyg'unligini tavsiflovchi bo'lgan qismi (mintaqasi).

Ekologiya (yunoncha "oikos" – uy, yashash joyi, yashash muhiti, "logos" – ta'limot) – tirik organizmlarning o'zaro va ularning yashash muhiti bilan bo'ladigan munosabati haqidagi fan bo'lib, noevolyutsion tarzda rivojlanuvchi tabiat tizimidagi ti-

уровень качественных экологических характеристик жилья, земельных участков и водных объектов.

Экологический стандарт – количественный или качественный показатель природных объектов, имеющий юридическую значимость.

Экологическое страхование – добровольное и обязательное государственное страхование юридических лиц и граждан, объектов их собственности и доходов на случай экологического и стихийного бедствия, аварий и катастроф.

Экологическая система – единый природный или природно-антропогенный комплекс, образованный живыми организмами и средой их обитания, в котором живые и косные экологические компоненты соединены между собой причинно-следственными связями, обменом веществ и распределением потока энергии.

Экологическая безопасность – одна из составляющих национальной безопасности, совокупность природных, социальных и других условий, обеспечивающих безопасную жизнь и деятельность проживающего (либо действующего) на данной территории населения и обеспечение устойчивого состояния биоценоза естественной экосистемы.

Экологическая зона – часть территории (регион) Земли, характеризуются сочетанием близких экологических условий.

Экология – (от др.-греч. οἶκος – обиталище, жилище, дом, имущество и λόγος – понятие, учение, наука) – наука об отношениях живых организмов и их сообществ между собой и с окружающей средой.

rik organizmlar va ularning atrof-muhiti bilan bo‘ladigan munosabatlariga doir qonuniyatlarni tadqiq qiladi.

Ekologiya huquqi – tabiat bilan jamiyat o‘rtasida paydo bo‘ladigan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tomondan tartibga solishni o‘rganuvchi fan.

Ekspert – xulosa berish uchun fan, texnika, san'at yoki hunar sohasida maxsus bilimlarga ega bo‘lgan, belgilangan tartibda sud eksperti sifatida tayinlangan jismoniy shaxs.

Ekspert xulosasi – sud eksperti yoki sud ekspertlari komissiyasi tomonidan tuziladigan va sud-ekspert tekshirishlarining olib borilishini va natijalarini aks ettiradigan yozma hujjatdir.

Ekspertiza – fuqarolik, xo‘jalik, jinoyat va ma’muriy sud ishlarini yuritishda ish holatlarini aniqlashga qaratilgan hamda sud eksperti tomonidan fan, texnika, san'at yoki hunar sohasidagi maxsus bilimlar asosida sud-ekspert tekshirishlarini o‘tkazish va xulosa berishdan iborat bo‘lgan protsessual harakatdir.

Ekspertning javobgarligi – FPK ning 86-moddasiga muvofiq agar ekspert sud uzrsiz deb topgan sabablarga ko‘ra sudning chaqiruvi bo‘yicha kelmasa, unga eng kam ish haqining besh baravarigacha miqdorda jarima solinishi, bila turib yolg‘on xulosa berganlik, sud uzrsiz deb topgan sababga ko‘ra xulosa berishdan bosh tortganlik uchun ekspert O‘zbekiston Respublikasi JKning tegishincha 238 va 240-moddalari bo‘yicha javobgar

Экологическое право – особое комплексное образование, представляющее собой совокупность правовых норм, регулирующих общественные отношения в сфере взаимодействия общества и природы.

Эксперт – физическое лицо, назначенное в установленном порядке, судебным экспертом для дачи заключения в области специальных познаний в области науки, искусства, техники или ремесла.

Заключение эксперта – письменный документ, выражающий итоги и ход проведения экспертизы, составленный судебным экспертом либо комиссией судебных эксперов.

Экспертиза – процессуальное действие для разъяснения возникающих при разбирательстве гражданских, хозяйственных, уголовных и административных дел вопросов, требующих специальных познаний в области науки, искусства, техники или ремесла, суд по просьбе лиц, участвующих в деле, либо по своей инициативе может назначить экспертизу.

Ответственность эксперта – в соответствии со ст.86 ГПК, если по причинам, признанным судом неуважительными, эксперт не явится по вызову суда, то он подвергается штрафу до пяти минимальных размеров заработной платы. За дачу заведомо ложного заключения, за отказ от дачи заключения по причине, признанной судом неуважительной, эксперт несет ответственность соответственно по

bo‘lishi belgilab qo‘yilgan.

Ekspertning huquq va majburiyatlari – FPKning 86-87 moddalariga asosan ekspert ish materiallari bilan tanishish, ishda ishtirok etayotgan shaxslar va guvohlarga savollar berish, joyga borib ko‘zdan kechirishda ishtirok etishga va ekspert sifatida o‘zini qiziqtirayotgan holatlarni aniqlash uchun o‘ziga qo‘shimcha materiallar berishni suddan iltimos qilish kabi huquqlardan foydalanadi hamda ekspert qilib tayinlangan shaxs sudning chaqiruvi bo‘yicha kelishi va o‘z oldiga qo‘yilgan masalalar yuzasidan xolis xulosa berishi shart qilib belgilangan.

Eksport (lot. exportare – olib chiqish) – tovarlar bojxona hududidan tashqariga ularni ushbu hududga qaytarib olib kirish majburiyatisiz olib chiqiladigan bojxona rejimi.

Eksport nazorati – O‘zbekiston Respublikasi hududidan eksport nazorati ob’ektlarini olib chiqishga nisbatan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o‘tkaziladigan nazorat

Ekstraditsiya – xalqaro xarakterga ega jinoyat qilgan jismoniy shaxsni xalqaro huquq normalariga asoslanib tegishli davlatlar o‘rtasida erishilgan o‘zaro huquqiy yordam ko‘rsatish kelishuviga binoan, javobgarlikka tortish yoki shu shaxsga nisbattan chiqqan hukmni ijro etish maqsadida ikkinchi davlatga topshirish. Diplomatik immunitet va imtiyozlardan foydalanuvchi shaxslarga nisbatan ekstraditsiya shuni bildiradiki, mezbon davlat hududida jinoyat qilgan diplomat o‘z mamlakatiga chiqarib yuborilishi va o‘z davlati qonunlariga muvofiq javobgarlikka tortilishi mumkin. 2001 yil 8 may kuni O‘zbe-

статьям 238 и 240 Уголовного кодекса Республики Узбекистан.

Права и обязанности эксперта – в соответствии со ст.86-87 ГПК лицо, назначенное экспертом, обязано явиться по вызову суда и дать объективное заключение по поставленным ему вопросам. Эксперт имеет право знакомиться с материалами дела, задавать вопросы участ вующим в деле лицам и свидетелям, принимать участие в осмотре на месте и просить суд о представлении ему дополнительных материалов для выяснения интересующих его как эксперта обстоятельств.

Экспорт (лат. exportare – вывозить) **–** режим, при котором товары вывозятся за пределы таможенной территории без обязательства их обратного ввоза.

Экспортный контроль – контроль, направленный на обеспечение установленного законодательством об экспортном контроле порядка вывоза с территории Р.Уз. объектов экспортного контроля.

Экстрадиция – согласованный между заинтересованными государствами на основе норм международного права акт правовой помощи, заключающийся в передаче физического лица, совершившего преступление международного характера, другому государству в целях привлечения его к уголовной ответственности или для приведения в исполнение вступившего в силу приговора в отношении данного лица. В отношении лиц, пользующихся дипломатическими иммунитетами и привилегиями, экстрадиция означает, что иностранный дипломат, совершивший

kiston Respublikasi Vazirlar Kengashining №207 sonli qarori bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasida chet davlatlarning diplomatik va konsullik muassasalari» nomli Nizomning 3.15-moddalarida aytilganki, «diplomatik himoyadan foydalanuvchi shaxslar O‘zbekiston Respublikasi yurisdiktsiyasiga tortilishi mumkin, agar akkreditatsiya qilingan davlatning bunga aniq ifodalangan roziligi bo‘lsa». Bundan shu ma’no chiqadiki, akkreditatsiya qilingan davlat rozilik bermasa, ularni ekstraditsiya qilishga to‘g‘ri keladi.

преступление на территории государства пребывания может быть выслан в свою страну и, соответственно, он будет нести ответственность перед властями своей собственной страны и по её законам. В пункте 3.15 Положения «О дипломатических представительствах и консульских учреждениях иностранных государств в Республике Узбекистан», утвержденном постановлением №207 Кабинета Министров Республики Узбекистан 8 мая 2001г. говорится, что «лица, пользующиеся дипломатической защитой, могут подлежать юрисдикции РУз. в случае ясно выраженного согласия на это аккредитующего государства». Отсюда следует, что в случае несогласия аккредитующего государства они подлежат экстрадиции.

Elektorat (lot. ye1estog – saylovchi) – parlament, prezidentlik va mahalliy saylovlarda muayyan siyosiy partiyalarga ovoz beradigan saylovchilar guruhi. Keng ma’noda mamlakatda mavjud saylovchilar korpusi tushunchasining sinonimi hisoblanadi. Bundan tashqari, mazkur tushuncha muayyan deputatni, saylab qo‘yiladigan mansabdor shaxsni qo‘llabquvvatlovchi saylovchilarni anglatishi ham mumkin.

Электора́т (лат. elector – избиратель) – круг избирателей, голосующих за определённую партию на парламентских, президентских или муниципальных выборах. В более широком значении употребляется как синоним избирательного корпуса страны. Электорат - 1) численность граждан, имеющих право избирать при голосовании; 2) избиратели, голосующие за определенную политическую партию.

Elektr energetika – elektr energiyasini hosil qilish, uzatish, taqsimlash, sotish va iste'mol qilish sohasi.

Электроэнергетика – сфера производства, передачи, распределения, сбыта и потребления электрической энергии.

Elektr energetikasi ob’ektlari – elektr energiyasini hosil qiluvchi korxonalar, shuningdek, elektr tarmog‘i xo‘jaligi ob’ektlari.

Объекты электроэнергетики – предприятия по производству электрической энергии, а также объекты электросетевого хозяйства.

Elektr energiyasi iste'molchisi (iste’molchi) – elektr ta’minoti shartnomasiga muvofiq elektr energiyasi-

Потребитель электрической энергии (потребитель) – юридическое или физическое лицо, ис-

dan ishlab chiqarish va (yoki) maishiy ehtiyojlar uchun foydalanuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs.

Elektron raqamli imzo – elektron hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotini elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o‘zgartirish natijasida hosil qilingan hamda elektron raqamli imzoning ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xatolik yo‘qligini aniqlash va elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasini identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan imzo.

Elektron raqamli imzoning yopiq kaliti – elektron raqamli imzo vositalaridan foydalangan holda hosil qilingan, faqat imzo qo‘yuvchi shaxsning o‘ziga ma’lum bo‘lgan va elektron hujjatda elektron raqamli imzoni yaratish uchun mo‘ljallangan belgilar ketma-ketligi.

Elektron raqamli imzoning ochiq kaliti – elektron raqamli imzo vositalaridan foydalangan holda hosil qilingan, elektron raqamli imzoning yopiq kalitiga mos keluvchi, axborot tizimining har qanday foydalanuvchisi foydalana oladigan va elektron hujjatdagi elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tasdiqlash uchun mo‘ljallangan belgilar ketma-ketligi.

Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tasdiqlash – elektron raqamli imzoning elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasiga tegishliligi va elektron hujjatdagi axborotda xatolik yo‘qligi tekshirilgandagi ijo-

пользующее электрическую энергию для производственных и (или) бытовых нужд в соответствии с договором электроснабжения.

Электронная цифровая подпись – подпись в электронном документе, полученная в результате специальных преобразований информации данного электронного документа с использованием закрытого ключа электронной цифровой подписи и позволяющая при помощи открытого ключа электронной цифровой подписи установить отсутствие искажения информации в электронном документе и идентифицировать владельца закрытого ключа электронной цифровой подписи.

Закрытый ключ электронной цифровой подписи – последовательность символов, полученная с использованием средств электронной цифровой подписи, известная только подписывающему лицу и предназначенная для создания электронной цифровой подписи в электронном документе.

Открытый ключ электронной цифровой подписи – последовательность символов, полученная с использованием средств электронной цифровой подписи, соответствующая закрытому ключу электронной цифровой подписи, доступная любому пользователю информационной системы и предназначенная для подтверждения подлинности электронной цифровой подписи в электронном документе.

Подтверждение подлинности электронной цифровой подписи – положительный результат проверки принадлежности электронной цифровой подписи владельцу закрытого ключа электронной

biy natija.

Elektron tijorat – axborot tizimlaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan, tovarlarni sotish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatishga doir tadbirkorlik faoliyati.

Elektron to‘lov – texnika vositalaridan, axborot texnologiyalaridan va axborot tizimlari xizmatlaridan foydalangan holda elektron to‘lov hujjatlari vositasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish.

Elektron hujjat – elektron shaklda qayd etilgan, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan hamda elektron hujjatning uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan boshka rekvizitlariga ega bo‘lgan axborot.

Emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar – bitta chiqarilishi doirasida bir xil belgilar va rekvizitlarga ega bo‘lgan, mazkur chiqarilish uchun yagona shartlar asosida joylashtiriladigan hamda muomalada bo‘ladigan qimmatli qog‘ozlar.

Emitent – emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar chiqaruvchi va ular yuzasidan qimmatli qog‘ozlarning egalari oldida majburiyatlari bo‘lgan yuridik shaxs.

Epidemiya – aholi orasida uchrab turadigan kasalliklarning, ayniqsa, yuqumli kasalliklarning keng tarqalishi, keskin ravishda ko‘payishi.

Er va xotinning umumiy mulki – er va xotinning nikoh davomida orttirgan mol-mulklari, shuningdek, nikoh qayd etilgunga qadar, bo‘lajak er-xotinning umumiy mablag‘lari hisobiga olingan mol-mulklari, agar qonun yoki nikoh shartnomasida

цифровой подписи и отсутствия искажений информации в электронном документе.

Электронная коммерция – предпринимательская деятельность по продаже товаров, выполнению работ и оказанию услуг, осуществляемая с использованием информационных систем.

Электронный платеж – осуществление безналичных расчетов посредством электронных платежных документов с использованием технических средств, информационных технологий и услуг информационных систем.

Электронный документ – информация, зафиксированная в электронной форме, подтвержденная электронной цифровой подписью и имеющая другие реквизиты электронного документа, позволяющие его идентифицировать.

Эмиссионные ценные бумаги – ценные бумаги, обладающие в пределах одного выпуска однородными признаками и реквизитами, размещаемые и обращаемые на основании единых для данного выпуска условий.

Эмитент – юридическое лицо, выпускающее эмиссионные ценные бумаги и несущее обязательства по ним перед их владельцами.

Эпидемия – широкое распространение заразительных болезней, которые встречаются среди населения, также их приумножение.

Qonunchilik jarayoni – qonunlarni yaratish bo‘yicha qonun chiqaruvchi organ faoliyatining tartibi bo‘lib, odatda, u Konstitutsiya va tegishli vakillik organining reglamentida mustahkamlanadi. Qonunchilik jarayoni uchun aniq yuridik reglamentatsiyaning bo‘lishi xarakterlidir. O‘zbekiston Respublikasida qonunchilik jarayoni to‘rtta bosqichdan iborat. Birinchisi – qonun loyihasini kiritish – qonunchilik tashabbusi, ikkinchisi – Oliy Majlis Qonunchilik palatasida qonun loyihasini muhokama qilish, uchinchisi – qonunning qabul qilinishi va nihoyat, to‘rtinchisi – qonunning Prezident tomonidan imzolanishi va xalqqa e'lon qilinishi.

Qonunchilik texnikasi – qonunlarni qabul qilish, rasmiylashtirish va e’lon qilish hamda ularga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish, eskirgan-

ществления своих функций государством, выражается в выпуске законов органами государственной власти; 2) свод правовых норм, полностью координирующего общественные отношения или одна область общественных отношений (гражданское законодательство, уголовное законодательство, административное законодательство и др.) в соответствии с законом «О нормативно-правовых документах» принимается в форме указанной в законе, официальный документ направленный на определение, изменение или отмену норм законодательных документов в качестве общеобязательных государственных указаний, называется нормативно-правовым документом, и нормативно-правовые документы считаются законодательными документами.

Законодательный процесс – порядок деятельности органа законодательной власти по созданию законов, обычно закрепленный в конституции и регламенте соответствующего представительного органа. Для З.п. характерна четкая юридическая регламентация. В РУз включает (чаще всего) четыре стадии. *Первая* стадия З.п. – внесение законопроекта; *вторая* стадия – законопроект проходит рассмотрение в законодательной палате Олий Мажлиса; *третья* стадия – принятие закона; *четвертая* стадия – подписание и обнародование закона Президентом Республики Узбекистан.

Законодательная техника – собрание ряда требований, правил, методов и способов необходимых для соблюдении в процессе

larini bekor qilish jarayonida rioya etilishi lozim bo‘lgan qator talablar, qoidalar, usul va yo‘llar yig‘indisidir.

принятия, оформления и объявления законов, а также внесения в них дополнений и поправок, отмены устаревших.

Qonunchilik tizimi – huquqiy normalarning ifodalanish shaklini o‘zida aks ettirgan huquq manbalarining majmui.

Система законодательства – комплекс правовых источников, отражающих в себе форму выражения правовых нормативов.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining byudjeti – Davlat byudjetining Qoraqalpog‘iston Respublikasi pul mablag‘lari jamg‘armasini tashkil etuvchi bir qismi bo‘lib, byudjetda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Бюджет Республики Каракалпакстан – часть Государственного бюджета, составляющая фонд денежных средств Республики Каракалпакстан, предусматривающий источники доходов и размеры поступлений из них, а также направления расходования и размеры средств, выделяемых на конкретные цели в течение финансового года.

Qurolli hujum – quroldan foydalangan holda shaxs hayoti yoki sog‘ligiga tajovuz qilish.

Нападение с применением оружия – посягательство на жизне и здоровье личности с применением оружия.

Qo‘poruvchilik – 1) odamlarni qirib yuborish; 2) yoki ularning sog‘ligiga ziyon yetkazish; 3) yoxud mulkka shikast yetkazish yoki uni nobud qilish kabi harakatlarni sodir etishdan iborat bo‘ladi.

Диверсия – действия, направленные на следующее: 1) уничтожение людей; 2) нанесение вреда их здоровью; 3) повреждение или уничтожение собственности.

Qo‘shilish shartnomasi – shartlarini taraflardan biri formulyarlar yoki boshqa standart shakllarda ta’riflagan hamda ikkinchi taraf faqat taklif qilingan shartnomaga butunlay qo‘shilish yo‘li bilan qabul qilishi mumkin bo‘lgan shartnoma qo‘shilish shartnomasi deyiladi.

Договор присоединения – договором присоединения признается договор, условия которого определены одной из сторон в формулярах или иных стандартных формах и могли быть приняты другой стороной не иначе как путем присоединения к предложенному договору в целом.

Qo‘shimcha jazolar – asosiy jazo turiga qo‘shib tayinlanadigan va mustaqil tarzda tayinlash mumkin bo‘lmagan jazolar turlari.

Дополнительные наказания – лишение воинского или специального звания – присоединяются к основным мерам государственного принуждения и самостоятельно применяться не могут

Qo‘shimcha mulkiy sug‘urta –

Дополнительное имуществен-

agar mol-mulk yoki tadbirkorlik xavfi faqat sug‘urta qiymatining bir qismi miqdorida sug‘urtalangan bo‘lsa, sug‘urta qildiruvchi (naf oluvchi) qo‘shimcha sug‘urta qilishga, shu jumladan boshqa sug‘urtalovchida sug‘urta qilishga haqli, ammo barcha sug‘urta shartnomalari bo‘yicha umumiy sug‘urta puli sug‘urta qiymatidan oshib ketmasligi lozim.

Qo‘shimcha ta’tillar – yollanib ishlovchi xodimlarga muayyan hollarda asosiy ta’tiliga qo‘shimcha ravishda beriladigan mehnat ta’tili. Qo‘shimcha mehnat ta’tili quyidagi hollarda berilishi mumkin: mehnat zararli bo‘lganligi tufayli; ishning alohida xususiyatiga ko‘ra; muayyan korxona va tashkilotlarda yil ishlaganni munosabati bilan; qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda (masalan, 12 yoshga to‘lmagan, nogiron bolasi bor ayollarga har yili uch ish kunidan kam bo‘lmagan qo‘shimcha ta’til berilishi (MK, 232-m). Mehnat ta’tilining umumiy miqdori qo‘shimcha ta’tilni ham qo‘shib hisoblaganda 48 ish kunidan ko‘p bo‘lmasligi lozim (MK, 140-m., 2-q.).

Qo‘shimcha ekspertiza – qo‘shimcha ekspertiza ekspert (ekspertlar kommisiyasi) xulosasidagi bo‘shliqlarning o‘rnini to‘ldirish uchun tayinlanadi va shu yoki boshqa ekspert (ekspertlar kommisiyasi) tomonidan o‘tkaziladi.

ное страхование – если имущество или предпринимательский риск застрахованы лишь в части страховой стоимости, страхователь (выгодоприобретатель) вправе осуществить дополнительное страхование, в том числе у другого страховщика, но с тем, чтобы общая страховая сумма по всем договорам страхования не превышала страховой стоимости.

Отпуск дополнительный – это разновидность трудового отпуска, предоставляемого отдельным работникам сверх (в дополнение) установленного им основного (минимального или удлиненного) отпуска. Продолжительность и порядок предоставления дополнительных отпусков определяется законодательными и иными нормативными актами о труде. Дополнительные отпуска предоставляются работникам: занятым на работах в неблагоприятных и особых условиях труда; выполняющим работу в тяжелых и неблагоприятных природно-климатических условиях; в других случаях, предусмотренных законодательными и иными нормативными актами о труде, условиями трудового договора.

Дополнительная экспертиза – назначается для восполнения имеющихся в заключении эксперта (комиссии экспертов) пробелов и производится тем же или другим экспертом (комиссией экспертов).

R r

Rad qilish – fuqarolik, xo‘jalik, jinoiy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslar tomonidan sudya, prokuror, sud kotibi, ekspert, mutaxassis, tarjimonni ishda ishtirok etishini chetlatishdir. Rad qilish asoslari O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi, Xo‘jalik protsessual kodeksi, Jinoyat protsessual kodeksida belgilangan.

Radioaktiv modda – bu yadro materialiga oid bo‘lmagan juda ko‘p miqdorda radionukliddan iborat bo‘lgan ionlashtiruvchi nurlarni chiqaruvchi modda, shuningdek, shunday kimyoviy elementki, unda hamma izotoplar radioaktiv hisoblanadi.

Radioaktiv chiqindi – bu amaliy qiymatga ega bo‘lmagan kimyoviy elementlarning radioaktiv izotopidan iborat bo‘lgan chiqindi.

Raqobat – xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning musobaqalashuvi bo‘lib, bunda ularning mustaqil harakatlari har bir sub'ekt tomonidan tegishli tovar bozoridagi tovarlar muomalasining umumiy shart-sharoitlariga ta’sir ko‘rsatish imkoniyatini cheklaydi.

Raqobatchini obro‘sizlantirish – bosma yoki boshqacha usulda ko‘paytirilgan matnlarni yoki ommaviy axborot vositalari orqali xo‘jalik yurituvchi sub'ektning ishbilarmonlik nufuziga putur yetkazish maqsadida bila turib yolg‘on, noaniq yoki buzib ko‘rsatilgan ma’lumotlarni tarqatish.

Rastrata – qonunga xilof ravishda

Отвод – отстранение судьи, прокурора, судебного секретаря, эксперта, специалиста, переводчика со стороны лиц, участвующих в деле в гражданском, хозяйственном, уголовном судопроизводстве. Основания для отвода закреплены в Гражданском процессуальном кодексе, Хозяйственном процессуальном кодексе, Уголовном процессуальном кодексе Республики Узбекистан.

Радиоактивные вещество – вещества, которые содержат (в высокой концентрации) радионуклиды, не относящиеся к ядерным материалам вещества, испускающие ионизирующее излучение, а так же такой химический элемент, все изотопы которого радиоактивны.

Радиоактивные отходы (РАО**)** – отходы, содержащие радиоактивные изотопы химических элементов и не имеющие практической ценности.

Конкуренция – состязательность хозяйствующих субъектов, когда их самостоятельные действия ограничивают возможность каждого из них воздействовать на общие условия обращения товаров на соответствующем товарном рынке.

Дискредитация конкурента – деяние выражается в распространении заведомо ложных, неточных или искаженных сведений в печатном или иным способом размноженном тексте либо в средствах массовой информации с целью нанесения вреда деловой репутации хозяйствующего субъекта.

Растрата – незаконное безвоз-

o‘zganing mulkini sotish, sarflash, iste’mol qilish, hadya qilish va boshqa yo‘llar bilan begonalashtirish.

Ratifikasiya – (lot. Ratificatio, ratus – xal qilingan, tasdiqlangan + facere – qilmoq) tasdiqlash, har bir tomon maxsus organ tomonidan tasdiqlash orqali hujjatga yuridik kuch berish jarayoni (masalan, shartnomaga). R. qilingunga qadar bunday hujjat r. qilmagan taraf uchun yuridik kuchga ega bo‘lmaydi. R. – xalqaro shartnomalarni shu shartnoma ishtirokchisi bo‘lgan davlat tomonidan tasdiqlash. Shartnoma r. qilingach, kuchga kiradi. O‘zbekistonda xalqaro shartnomalar Oliy Majlis tomonidan r. qilinadi.

Reabilitasiya (lot. “yaroqliligini tiklash”) – reabilitatsiya deganda boy berilgan huquq va imtiyozlarni qaytarish, noqonuniy ravishda jinoiy javobgarlikka tortish, ozodlikdan mahrum etish, aybsiz shaxslarni nohaq hukm qilish bilan bog‘liq huquq cheklanishlarini bartaraf etish, shuningdek, kelgusi vaqtga huquqiy layoqatni tiklash.

Reglament (regle – qoida) – muayyan davlat organi yoki bo‘linmasining ichki tashkiliy hamda faoliyat tartibini belgilovchi normativ-huquqiy hujjat, ya’ni vakillik organlari majlis, yig‘ilish, sessiya va syezdlarini olib borish tartibi. Palata yoki bir palatali parlament faoliyatining ichki tashkil etilishi va shakllarini tartibga soluvchi (doimiy yoki muvaqqat) qoidalar to‘plami.

мездное обращение чужого имущества, вверенного виновному, в свою пользу или пользу других лиц.

Ратификация (лат. ratificatio от ratus – решённый, утверждённый + facere – делать) – процесс придания юридической силы документу (например, договору) путем утверждения его соответствующим органом каждой из сторон. До ратификации такой документ, как правило, не имеет юридической силы и не обязателен для нератифицировавшей стороны. Р. – утверждение международного договора государством-участником данного договора. Международные договоры имеют силу после ратификации. Международные договоры в Узбекистане ратифицируются Олий Мажлисом.

Реабилитация (от лат. «восстановление») – под понятием реабилитация понимается возвращение потерянных прав и интересов, устранение незаконного уголовного производства, а также восстановление правовой дееспособности.

Регламент (regle – правило) – нормативный правовой акт, регулирующий внутреннюю организацию и порядок деятельности какого-либо государственного органа и его подразделения, то есть порядок ведения заседаний, собраний, сессий и съездов представительных органов. Сборник правил, регулирующих внутреннюю структуру и формы деятельности палатного или однопалатного парламента (постоянный или временный).

Rejadan tashqari tekshirish – qonunda belgilangan tartibda, xo‘jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan qonunlar hamda o‘z faoliyatini tartibga soluvchi boshqa qonun hujjatlari qanday bajarilayotganligini maxsus vakolatli organning tekshirishlar rejasiga kiritilmagan tekshiruvi.

Rejali tekshirish – xo‘jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan qonunlar hamda o‘z faoliyatini tartibga soluvchi boshqa qonun hujjatlari qanday bajarilayotganligini nazorat qiluvchi organlarning oldindan tasdiqlangan reja asosida bir marta o‘tkaziladigan nazorat tekshiruvidir.

Reklama – bevosita yoki bilvosita foyda (daromad) olish maqsadida yuridik yoki jismoniy shaxslar, mahsulot, shu jumladan, tovar belgisi, xizmat ko‘rsatish belgisi va texnologiyalar to‘g‘risida har qanday shaklda va har qanday vositalar yordamida qonun hujjatlariga muvofiq tarqatiladigan maxsus axborot.

Reklama beruvchi – reklamani tayyorlash va (yoki) tarqatish uchun unga buyurtmachi bo‘lgan shaxs.

Reklama tayyorlovchi – reklama tayyorlashni to‘liq yoki qisman amalga oshiruvchi shaxs.

Reklama tarqatuvchi – reklama vositalari orqali reklama tarqatishni amalga oshiruvchi shaxs.

Reklamadan foydalanuvchi – reklama yo‘naltirilgan shaxs yoki shaxslar guruhi.

Renta shartnomasi – bir taraf (renta oluvchi) ko‘chmas yoki ko‘char mol-mulkni boshqa tarafga (renta to‘lovchiga) beradi, renta to‘-

Внеплановая проверка – проверка (в том числе краткосрочная), не включенная в годовой (квартальный) план проверок, осуществляемая контролирующими органами в порядке и случаях, предусмотренных законодательством.

Плановая проверка – единовременный контроль, осуществляемый контролирующими органами, за исполнением хозяйствующими субъектами законов и иных актов законодательства, регулирующих их деятельность.

Реклама – специальная информация, распространяемая в соответствии с законодательством в любой форме с помощью любых средств, о юридическом или физическом лице, продукции в том числе о товарном знаке, знаке обслуживания и технологии с целью прямого или опосредствованного получения прибыли (дохода).

Рекламодатель – лицо, являющееся заказчиком рекламы для ее производства и (или) распространения.

Производитель рекламы – лицо, полностью или частично осуществляющее производство рекламы.

Распространитель рекламы – лицо, осуществляющее распространение рекламы рекламными средствами.

Потребитель рекламы – лицо или группа лиц, на которых направлена реклама.

Договор ренты – по договору ренты одна сторона (получатель ренты) передает другой стороне (плательщику ренты) в собствен-

lovchi esa olingan mol-mulk o‘rniga renta oluvchiga vaqti-vaqti bilan belgilangan pul summasi yoki uni ta’minlash uchun boshqa shaklda mablag‘ berish tarzida renta to‘lash majburiyatini oladi.

Respublika (lot. respublika, res – ish, publicus – ijtimoiy) – davlat hokimiyati aholi yoki umummilliy vakillik muassasalari (parlamentlar) tomonidan muayyan muddatga saylab qo‘yiladigan yuqori organlar tomonidan amalga oshiriladigan davlat boshqaruvi shakli. Davlat boshqaruvining respublika shakli quyidagi turlarga ajratiladi: 1) prezidentlik respublikasi (AQSH, Meksika), bunda Prezident umumxalq saylovida saylanib, bir vaqtning o‘zida davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig‘i hisoblanadi; 2) parlamentar respublika (Italiya, GFR, Vengriya) – bunda parlament to‘liq hokimiyatga ega bo‘lib, uning oldida hukumat siyosiy javobgar hisoblanadi. Parlament prezidentni saylaydi. Bunda Prezident faqat davlat boshlig‘i bo‘lib, ijro etuvchi hokimiyat boshlig‘i hisoblanmaydi; 3) aralash shakldagi respublika (dualistik respublika) – bunda Prezidentlik respublikasi bilan parlamentar respublika xususiyatlari qo‘shilib ketadi, ya’ni Prezident umumxalq saylovlarida saylanib, keng vakolatlarga ega bo‘ladi. Biroq hukumat parlament ishtirokida tashkil etiladi va u nafaqat Prezident oldida, balki parlament oldida ham siyosiy javobgar bo‘ladi. Bunda Prezident hukumatga bevosita rahbarlik qilmaydi, hukumatga Bosh vazir boshchilikni amalga oshiradi. Prezident parlamentni tarqatib yuborish

ность недвижимое или движимое имущество, а плательщик ренты обязуется в обмен на полученное имущество периодически выплачивать получателю ренту в виде определенной денежной суммы либо предоставления средств на его содержание в иной форме.

Респу́блика (от лат. «res publica» – «дело народа») – форма государственного управления, осуществляемого вышестоящими органами, избираемых на определенный срок представительскими учреждениями (парламент) населения или общенационального государственной власти. Форма государственного правления, которая распределяется на следующие виды: 1) президентская республика (США, Мексика), здесь президент избирается всенародно и одновременно считается главой государства и исполнительной власти; 2) парламентская республика (Италия, ФРГ, Венгрия) – здесь парламент имеет полноправную власть и правительство считается перед ним политическим ответственным. Парламент избирает президента. Здесь президент является только главой государства и не является главой исполнительной власти; 3) смешанный тип республики (дуалистическая республика) – здесь сливаются свойства Президентской и парламентской республики, и избирается в всенародных выборах имеет широкие полномочия.. Но правительство формируется при участии парламента, и оно является политическим ответственным не только перед президентом, но и перед парламентом. Здесь Президент правитель-

huquqiga ega bo‘ladi.

Respublika byudjeti – Davlat byudjetining umumdavlat tusidagi tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladigan qismi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Referendum (lot. referendum – xabar berilishi lozim bo‘lgan narsa) – davlat yoki ijtimoiy hayotning muhim masalalari bo‘yicha saylovchilarning ovoz berishidir, ya’ni alohida jamiyat va davlat ahamiyatiga molik masalani hal qilish uchun umumxalq ovoziga, so‘roviga qo‘yilishi. R. – eng muhim masalalarni fuqarolarining bevosita ishtirokida hal qilish. R. – umumxalq ovozi hisoblanadi. U mamlakat hayotidagi muhim masalalarni hal qilish, qonunlar qabul qilish uchun o‘tkaziladi. R. kuni, unda hal qilinadigan masalalar Oliy Majlis tomonidan belgilanadi. R.da byulletenga savollar yozilgan bo‘lib, fuqarolar ularga nisbatan o‘z munosabatlarini bildiradilar. R.da ovoz berish yashirin o‘tkaziladi. R. xalqning jamiyat va davlat ishlarida ishtirokini ta’minlovchi muhim vosita.

ством непосредственно не управляет, правительством управляет премьер-министр. Президент имеет права роспуска парламента.

Республиканский бюджет – часть Государственного бюджета, используемая на финансирование мероприятий общегосударственного характера, предусматривающая источники доходов и размеры поступлений из них, а также направления расходования и размеры средств, выделяемых на конкретные цели в течение финансового года.

Референдум (лат. referendum – то, о чем следует известить) – дача голосов избирателей по важным вопросам государства или общественной жизни, то есть ставить на всеобщее голосование, опрос для решения вопроса, имеющего особое общественное и государственное значение. Р. – форма непосредственного волеизъявления граждан, по наиболее значимым вопросам. Р. является всенародным голосованием и оно проводиться для решения важных задач и приятии законов. День проведения референдума, и поставленные задачи определяются Олий Мажлисом. В бюллетене референдума находят свое место вопросы, и граждане дают свое мнение по данным вопросам. Р. gроводиться скрытым голосованием. Р. это один из способов участия общественности в принятии решений, важных для государства и для каждого отдельного гражданина.

S s

Sababiy bog‘lanish – sababni ifodalovchi ijtimoiy xavfli qilmish hamda natijani ifodalovchi ijtimoiy xavfli oqibat o‘rtasidagi aloqadir.

Savdo-sanoat palatasi – tadbirkorlik faoliyati sub’ektlarini ixtiyoriylik asosida birlashtiruvchi nodavlat notijorat tashkiloti.

Saylov – ovoz berish yordamida davlat organlari va o‘zini-o‘zi boshqarish organlarini shakllantirish.

Saylov byulleteni – belgilangan shaklda tasdiqlangan, yashirin ovoz berish uchun mo‘ljallangan saylov hujjati. S.b.lari rasmiy va norasmiyligi bilan farqlanadi (Fransiyada S.b. o‘z nomzodini qo‘yadigan partiyalar, nomzodlar tomonidan chiqariladi; Norvegiyada saylovchi oddiy oq qog‘ozdan foydalanishi mumkin).

Saylov garovi – deputatlikka nomzodlarni ro‘yxatga olishda qator xorijiy mamlakatlar qonuni bo‘yicha nomzod davlatga pul summasi topshirishi lozim va u okrug bo‘yicha belgilangan sondan kam ovoz to‘plasa, unga bu pullar qaytarilmaydi.

Saylov jarayoni – saylov tizimining asosiy elementlaridan biri. U: 1) saylovlar tayinlashni (qoida tariqasida bu alohida huquq davlat boshlig‘i yoki qonunchilik organiga tegishli); 2) qonun bilan belgilangan tartibda saylovchilarni ro‘yxatga olishni; 3) tumanlar va b. joylarda saylov okruglari tashkil etishni, (vakillik printsipiga muvofiq hududiylik, milliylik, ishlab chiqarish va b.

Причинная связь – это связь между общественно опасным деянием, представляющим собой причину, и общественно опасным последствием, являющимся следствием.

Торгово-промышленная палата – негосударственная некоммерческая организация, объединяющая на добровольной основе субъектов предпринимательской деятельности.

Выборы – способ формирования органов государства и органов местного самоуправления с помощью голосования.

Избирательный бюллетень – документ утвержденный определенной формой для тайного волеизъявления избирателя. И.б. различаются официальными и не официальными (во Франции И.б. выпускаются партиями и кандидатами представляющими своих кандидатур, а в Норвегии избиратель может пользоваться обычной бумагой).

Избирательный залог – в ряде зарубежных стран денежная сумма, вносимая при выдвижении кандидата в депутаты, избирательный залог не подлежит возврату, если данный кандидат не получит минимума голосов избирателей.

Избирательный процесс – один из элементов избирательной системы. Он включает в себя : 1) проведению выборов (по правилам это касается главу государства и законодательного органа); 2) регистрацию избирателей определенную законом; 3) организацию избирательных округов туманов (районов) и др. (по принципу представительства формирует ре-

xususiyatlarni shakllantiradi (ovoz berish uchun saylov uchastkalari va punktlari ham tashkil etiladi); 4) nomzod ko‘rsatishni (siyosiy partiyalar tomonidan, saylov bloklari tomonidan, tashabbuskor guruhlar tomonidan); 5) ovoz berish o‘tkazishni (bir yoki ikki turda); 6) ovoz berish natijalarini aniqlashni (berilgan ovozlarni hisoblashni) va mahalliy hamda markaziy saylov organlari tomonidan amalga oshiriluvchi deputatlar mandati bo‘lishini o‘z ichiga oladi.

Saylov kvotasi – deputatning saylanishi uchun zarur bo‘lgan eng kam ovozlar soni. Saylov kvotasi har bir saylov okrugi uchun alohida aniqlanishi yoki butun mamlakat uchun belgilanishi mumkin. O‘zbekistonda har bir okrugdagi ro‘yxatga olingan saylovchilar kamida 33% saylovda ishtirok etib, shu saylovchilarning ko‘pchilik (50%+1ta ovoz) ovozini olgan deputat saylangan hisoblanadi.

Saylov komissiyalari – fuqarolar tomonidan davlat organlari tarkibida bevosita saylovlarni o‘tkazish uchun tashkil etilgan maxsus kollegial organlar. S.k. vakolati va tashkil etish tartibi, tizimi O‘zR ning saylov to‘g‘risidagi qonunlari bilan belgilanadi. O‘zRda S.k. tizimiga quyidagilar kiradi: Markaziy saylov komissiyasi, okrug saylov komissiyasi va uchastka S.k..S.k. fuqarolarni o‘z ishlaridan, saylov okruglari, uchastkalari tuzilganligi, S.k.ning tarkibi, ularning joylashgan yeri va ish vaqtidan voqif etadilar, saylovchilarning ro‘yxatlari, saylovda ishtirok etayotgan siyosiy partiyalarning ro‘yxati bilan tanishtiradilar, deputatlikka nomzodlar xususidagi ma’lumotlar, ovoz berish va saylov yakunlaridan

гиональные, национальные, производственные и др. свойства (организует для голосования избирательные участки и пункты); 4) выдвигать кандидата (от политических партий, избирательных блоков и инициативных групп); 5) проведения голосования (в одном или двух турах); 6) подсчета результата голосования и мандата депутатов территориальных и центрального избирательного органа.

Избирательная квота – наименьшее число голосов, необходимое для избрания одного депутата. И.к. может определяться как для каждого избирательного округа, так и для страны в целом. В Узбекистане считается избранным депутат получивший большинство голосов (50%+1 голос) не менее 33% от участвовавщихся избирателей зарегистрированных избирательным округом.

Избирательные комиссии – специальные коллегиальные органы, формируемые гражданами в составе государственных органов организующие и обеспечивающие подготовку и проведение выборов различного уровня. Полномочия и порядок организации И.к. определяется законами РУз о выборах. В РУз в систему И.к. входят следующие: Центральная избирательная комиссия, избирательная комиссия округа и участка И.к. И.к. оповещает граждан о составлении избирательных округов, участков, месте расположения и режиме работы, ознакомляет списком избирателей и участвующих партий, извещает данные о кандидатах в депутаты, результаты голосования

xabardor qiladilar. "O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida"gi O‘zR Qonunining 9-18-m.larida S.k. b-n bog‘liq qoidalar belgilangan.

Saylov korpusi – qonunga asosan (aktiv saylov huquqi) ovoz berish huquqiga ega bo‘lgan fuqarolar yig‘indisi.

Saylov okrugi – davlat organlariga nomzodlar saylanadigan hududiy birlik. Har bir saylov okrugidan qancha deputatlar saylanishiga qarab, bir mandatli va ko‘p mandatli S.o.lari tashkil etiladi. S.o., shuningdek umumdavlat (proporsional saylov tizimida, davlat boshlig‘ini saylashda) va regional (asosan, majoritar va gohida proporsional saylov tizimida) bo‘lishi mumkin. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida”gi O‘zR Qonunining 7-m.siga muvofiq, O‘zR Oliy Majlisining QPga saylov o‘tkazish uchun bir yuz o‘ttiz beshta hududiy S.o. tuziladi. Har bir S.o.dan bitta deputat saylanadi. QPga deputatlar saylovini o‘tkazuvchi S.o.lari QR Jo‘qorg‘i Kengesining, vil.lar va Toshkent sh. hokimliklarining taqdimnomasiga binoan Markaziy saylov komissiyasi tomonidan tuziladi. S.o.larining chegaralari QR, vil.lar va Toshkent sh.ning ma’muriy-hududiy tuzilishini inobatga olgan holda belgilanadi. S.o.lari, qoida tariqasida, O‘zRning butun hududida saylovchilar soni teng holda tuziladi. Har bir saylov uchun S.o.ga to‘g‘ri keladigan saylovchilar normasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan belgilanadi. Markaziy saylov komissiyasi S.o.lari ro‘yxatini ularning chegaralari va saylovchilar sonini ko‘rsatgan holda

и итоги выборов. В ст. 9-18 Закона РУз «О выборах в Олий Мажлис Республики Узбекистан» определены правила связанные с И.к.

Избирательный корпус – совокупность граждан, обладающих правом голоса (активным избирательным правом) в соответствии с законом.

Избирательный округ – избирательная территориальная единица, образуемая для проведения выборов в государственные органы. В зависимости от количества избираемых депутатов с каждого округа организовываются одномандатные и многомандатные И.о., при этом голосование может быть организовано по мажоритарной избирательной системе относительного большинства или абсолютного большинства. Согласно ст. 7 Закона РУз «О выборах в Олий Мажлис Республики Узбекистан» для проведения выборов в ЗП Олий Мажлиса составляются сто тридцать пять региональных И.о. От каждого округа избирается 1 депутат. И.о. проводящие выборы в ЗП составляются Центральной избирательной комиссией по рекомендации Жукорги Кенгеса РК, хокимиатами вилоятов (областей) и города Ташкента. Границы И.о. определяются административно-территориальными структурами РК, вилоятов (областей) и города Ташкента. В порядке правил И.о. количество избирателей составляется равномерно по всей территории РУз. Избирательная норма соответствующая каждых выборов определяется Центральной избирательной комиссией. За

saylovga kamida yetmish besh kun qolganida e'lon qiladi. "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to‘g‘risida"gi O‘zR Qonunining 7-m.siga asosan deputatlar saylovini o‘tkazish uchun xalq deputatlari vil. va Toshkent sh. Kengashlariga deputatlar saylashda – oltmishtadan ko‘p bo‘lmagan, xalq deputatlari tum. va sh. Kengashlariga deputatlar saylashda o‘ttiztadan ko‘p bo‘lmagan hududiy S.o. tuziladi.

Saylov organlari – saylov tashkil etilishi va o‘tkazilishini ta’minlovchi organlardir. Saylov organlari turli davlatlarda turlicha bo‘lishi mumkin. Maxsus tashkil etiladigan saylov komissiyalari yoki davlat organlariga (munitsipalitetlar, sudlar, ichki ishlar organlari) ushbu vazifa yuklatiladi.

Saylov Tizimi – saylov o‘tkazish tartiblarining hamda ularni o‘rnatuvchi huquqiy normalarning yig‘indisi hisoblanadi. U o‘z ichiga saylovni o‘tkazuvchi barcha huquqiy hujjatlar, saylov tizimi tamoyillari, fuqarolarning barcha saylov huquqlarini oladi.

Saylov uchastkalari – ovoz berish va ovozlarni hisoblash uchun tashkil etiladigan hududiy birliklar. Saylov uchastkasi komissiyalari 5-19 nafar a’zodan, shu jumladan, rais, rais o‘rinbosari va kotibdan iborat tarkibda tuziladi.

Saylov huquqi – ikki ma’noda ishlatiladi. Birinchidan, saylovni tashkil qilish va o‘tkazishni tartibga soluvchi huquqiy me'yorlar yig‘indisi; ikkinchidan, fuqarolarning saylov huquqlari, ya’ni ovoz berish,

семьдесят пять дней до выборов Центральная избирательная комиссия объявляет списки И.о. с указаниями границ и количества избирателей. Согласно ст. 7 Закона РУз «О выборах народных депутатов в кенгаши вилоятов (областей), туманов (районов) и городов» для проведения выборов составляются И.о. народных депутатов вил. и г. Ташкента не более шестидесяти, народных депутатов тум. и г. не более тридцати.

Избира́тельные о́рганы – органы, обеспечивающие подготовку и проведение выборов . В разных странах избирательные органы могут быть разными. Избирательными органами могут быть как специальные избирательные комиссии, так и муниципалитеты, суды, органы внутренних дел.

Избирательная система – это совокупность правил, приемов и процессов, обеспечивающих и регулирующих правовые нормы. Она включает в себя все нормативные документы, принципы избирательной системы и все избирательные права граждан.

Избира́тельный уча́сток – территориальная единица, образуемая в период выборов и референдумов для проведения голосования и подсчёта голосов. Избирательные участки составляются из 5-19 членов комиссии, а также председателя, заместителя председателя и секретаря.

Избира́тельное пра́во – юридическое понятие, имеющее два основных значения: *во-первых*, совокупность правовых норм, регулирующих организацию и проведения выборов, *во-вторых* граж-

saylanish, saylov davrida boshqa tadbirlarda nomzodlar ko‘rsatish, nomzodlarni muhokama qilish, saylov komissiyalari tarkibida ishtirok etish huquqlari.

Saylovchi – saylab qo‘yiladigan davlat va jamoat organlaridagi lavozimlarga va vakillik organlari deputatligiga o‘tkaziladigan saylovlarda ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgan shaxs. Saylov kuniga qadar yoki saylov kunida 18 yoshga to‘ladigan, tegishli saylov uchastkasi hududida doimiy yoki vaqtincha istiqomat qilib turgan fuqarolar saylovchilar hisoblanadi. Har bir saylovchi faqat bitta saylovchilar ro‘yxatiga kiritiladi. Biror-bir sababga ko‘ra, saylovchilar ro‘yxatiga vaqtida kirmay qolgan saylovchi uning shaxsi, fuqaroligi va turar joyini tasdiqlovchi hujjatga asosan uchastka saylov komissiyasi tomonidan ro‘yxatga kiritiladi. Ba’zi davlatlarda saylovchi ushbu funksiyani bajarish uchun saylanadi (AQSH Prezidentini saylash uchun saylovchilar) yoki egallagan lavozimiga asosan (Fransiyada senatni saylashda munisipalitet a’zolari) bajaradi.

Saylovchilarni ro‘yxatga olish – fuqaroning saylovda ishtirok etish huquqini tasdiqlash tartibi; bu ish tegishli organlar tomonidan amalga oshiriladi. Saylovchilarni ro‘yxatga olishning ahamiyati shundaki, uning natijasida saylovdan oddin ovoz berish huquqiga ega fuqaroning shaxsini aniqlash va faqat shu shaxs saylov byulletenini to‘ldirib, saylov qutisiga tashlash imkoniyati vujudga keladi. Saylov kuniga qadar yoki saylov kunida 18 yoshga to‘lgan, ro‘yxat tuzilayotgan vaqtda mazkur saylov

данам права участия в выборах, т.е. права граждан страны избирать и быть избранными, права голосования, выбора кандидатур в других выборах, рассмотрение кандидатур, участия в составе выборочных комиссий.

Избиратель – гражданин, обладающий активным избирательным правом, достигшим 18 лет и место жительство которого расположено в пределах избирательного округа, что обеспечивает представительный характер органа публичной власти соответствующего уровня. Каждый избиратель регистрируется только одним избирательным списком. Не включенный по разным причинам в избирательный список гражданин может быть включен в список избирательной комиссией по предъявлению документа подтверждающего личности, гражданства и места жительства. В некоторых государствах избирается для выполнения этой деятельности избиратель (для выборов Президента США) или выполняет соответственно занимаемой должности (во время выборов сената Франции члены муниципалитета).

Регистрация избирателей – порядок утверждения прав участия граждан в выборах; эта работа осуществляется соответствующими органами. Значение регистрации избирателей состоит в том, чтобы установить личность имеющего право голоса раньше выборов таким образом, чтобы только этот человек мог подавать избирательный бюллетень. Основанием для регистрации (учета) является факт достижения 18ти лет до или в день выборов, нахождения места

uchastkasi hududida doimiy yoki vaqtincha istiqomat qilib kelayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari saylovchilar ro‘yxatiga kiritiladi. Ro‘yxatda har bir saylovchining familiyasi, ismi, otasining ismi, tug‘ilgan sanasi va manzili ko‘rsatiladi.

Sanitariya-gigiena me’yorlari – atrof tabiiy muhitni holatiga bog‘liq ravishda inson salomatligini ko‘rsatkichlarini aniqlashdan iborat. Amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq bunday toifadagi me’yorlarga zararli moddalar va biologik organizmlarning yo‘l qo‘yiladigan doiradagi to‘planish miqdorlari, radiatsiya, shovqin, tebranish, magnit maydonlari ta’sir ko‘rsatishining yo‘l qo‘yiladigan darajalarini va oziq-ovqat mahsulotlardan zararli moddalarni yo‘l qo‘yiladigan darajadagi qoldiq miqdorlarini kiritsa bo‘ladi.

Sanitariya-muhofaza zonasi – ionlashtiruvchi nurlanish manbai atrofidagi hudud bo‘lib, u yerda fuqarolarning nurlanish olish darajasi mazkur manbadan normal foydalanish sharoitida aholi uchun nurlanish dozasining belgilangan asosiy chegarasidan oshishi mumkin.

Sanksiya – huquq normasining bir qismi bo‘lib, unda dispozitsiyada ko‘rsatilgan talablarni bajarmaganlik uchun berilishi mumkin bo‘lgan jazoning yoki tavsiya etilgan harakatni sodir etganlik uchun rag‘batlantirish turi va o‘lchovi.

жительства на соответствующей территории, который устанавливается на основании сведений, предоставляемых органами, осуществляющими регистрацию граждан РУз по месту временного пребывания и по месту жительства.

Санитарно-гигиенические нормативы – ориентированы на показатели здоровья человека, в том числе в зависимости от состояния окружающей его среды, поскольку нельзя быть здоровым в нездоровой среде обитания. Согласно действующему положению, санитарно-гигиеническое нормирование - часть основ обеспечения санитарно-эпидемиологического благополучия населения, направленное на разработку научно обоснованных критериев безопасности и безвредности для здоровья человека факторов среды его обитания и условий его жизнедеятельности. Оно охватывает не только экологическую, но и производственную, и жилищно-бытовую сферу жизни человека.

Санитарно-защитная зона – территория вокруг источника ионизирующего излучения, на которой уровень облучения граждан в условиях нормальной эксплуатации данного источника может превысить установленный основной предел дозы облучения для населения.

Санкция – является одной частью правовой нормы, где вид и мера возможного наказания за невыполнение требований указанных в диспозиции или поощрения, которое может быть дано за совершение предложенного действия.

Senat (lot. senatus, senexdan – keksa, qariya) –

1. AQSH, Fransiya, Italiya, Braziliya, Pol`sha, Ruminiya, Chexiya, Avstraliya, Bel`giya, Kanada, Ispaniya, Venesuela, Kolumbiya, Dominikan Respublikasi, O‘zbekiston Respublikasi va ayrim boshqa davlatlarda parlamentning yuqori palatasi nomi.

2. Ayrim mamlakatlarda davlat boshqaruvi yuqori organining nomi (mas. Berlin senati).

3. Ayrim mamlakatlarda (qoidaga ko‘ra) oliy sud tarkibidagi bo‘limlar nomi, masalan, GFR federal konstitutsiyaviy sudining Senati. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining yuqori palatasi Senat deb nomlanadi va u hududiy vakillik organi bo‘lib hisoblanadi.

Senzura – bosmadan chiqarilgan mahsulotning mazmuni, uning chop etilishi va tarqatilishi ustidan, shuningdek, sahna asarlari, radio eshittirishlar va televizion ko‘rsatuvlar, ba’zida esa, shaxsiy yozishmalarning mazmuni hamda ijrosi ustidan rasmiy hokimiyat idoralarining nazorat olib borishi. Bundan maqsad – o‘sha hokimiyat idoralari tomonidan ziyon yetkazuvchi yoki noma’qul deb hisoblangan g‘oyalar va ma’lumotlar (davlat va jamiyat manfaatlariga zid) tarqatilishini taqiqlash yoki cheklashdan iborat. Ko‘plab zamonaviy konstitutsiyalarda axborot erkinligi e'tirof etilib, senzura to‘g‘ridan-to‘g‘ri taqiqlanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 67-moddasiga ko‘ra O‘zbekistonda senzuraga yo‘l qo‘yilmaydi.

Sertifikat – turistik xizmatlar sifatini va ularning muayyan standartga yoki boshqa normativ hujjatga

Сенат (лат. senatus от senex – старый, старец) –

1) Название верхней палаты парламента в США, Франции, Италии, Бразилии, Польше, Румынии, Чехии, Австралии, Бельгии, Канаде, Испании, Венесуэле, Колумбии, Доминиканской Республике, в Республике Узбекистан и некоторых других странах. 2)В некоторых странах название верхнего органа управления государства (например, сенат Берлине).

3) В некоторых государствах (по правилу) название отделов в составе Верховного суда, например Сенат Федерального Конституционного Суда. Верхняя палата Олий Мажлиса РУз называется Сенатом и является территориально представитель-ным органом.

Цензу́ра (лат. censura) – контроль официальных (светских или духовных) властей за содержанием, выпуском в свет и распространением печатной продукции, содержанием (исполнением, показом) пьес и других сценических произведений, кино-фотопроизведений, произведений изобразительного искусства, радио- и телевизионных передач, с тем чтобы не допустить или ограничить распространение идей и сведений, признаваемых этими властями нежелательными или вредными. Во многих конституциях цензура напрямую не допускается. Согласно ст. 67 Конституции РУз цензура не допускается.

Сертификат – документ, подтверждающий качество туристских услуг и их соответствие конкрет-

muvofiqligini tasdiqlovchi hujjat.

Sessiya (lot.sessio– majlis so‘zidan; ing. session) – ayrim davlatlarda parlament (yoki uning palatalari) ishining asosiy tashkiliy shakli hisoblanadi. “O‘zR Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida”gi O‘zR Konstitutsiyaviy qonunining 10-m.siga muvofiq, QP faoliyatining tashkiliy shakli uning QP sessiyalari davrida o‘tkaziladigan majlislaridir. Navbatdagi sessiyalar, qoida tariqasida, sentyabrning birinchi ish kunidan boshlab kelgusi yilning iyun` oyi oxirgi ish kuniga qadar o‘tkaziladi.

Siyosiy munosabatlar – jamiyatning siyosiy hayoti va uning siyosiy jarayonlarida uzluksiz harakatda bo‘lgan siyosat sub'ektlari va ularning ob'ektga qiladigan ta’sirini ifoda qiluvchi harakatlarning umumiy ifodasi yoki ularning birligi. S.m. fuqarolarning Kons. va qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan siyosiy huquq va erkinliklarining amalga oshishi natijasida yuzaga keladigan munosabatlar, shuningdek jamiyat va davlatni boshqarish, xalq hokimiyatini amalga oshirish sohasidagi munosabatlar yig‘indisi. S.m. qisman davlat huquqiy (konstitutsiyaviy huquqiy) munosabatlaridan, qisman nohuquqiy ijtimoiy munosabatlardan iborat bo‘ladi. Munosabatlarning ikkala guruhi ko‘pincha bir-biri b-n qo‘shilib ketadi. Mas, parlamentga saylov tayinlanishi, unda siyosiy partiya va harakatlarning ishtiroki, ularning o‘z nomzodlari ro‘yxatlarini taqdim etishi, saylovoldi tashviqot o‘tkazishning asosiy qoidalari – ana shularning hammasi qonunchilikda

ному стандарту или иному нормативному документу.

Сессия (лат. sessio - заседание, присест): – в некоторых государствах является организационной формой основной деятельности парламента (или его палат). В соответствии со 10 ст. конституционного закона «О Законодательной палате Олий Мажлиса РУз», организационная форма деятельности Законодательной палаты является её собрания в период сессий Законодательной палаты. Последующие собрания по правилу проводятся с первого рабочего дня сентября до конца рабочего дня июня последующего года.

Политические отношения – единство или общее выражение действий выражающих политическую жизнь и воздействие субъектов политики, непрерывно действующих в политических процессах общества на политические объекты. Политическими отношениями являются отношения возникающие в процессе реализации прав граждан, закрепленных в Конституции и других законах, а также, совокупность отношений в управлении общества и государства, и реализации народовластия. Политические отношения состоят частично из государственно-правовых (конституционно правовых) отношений и частично из не правовых социальных отношений. Эти две группы отношений обычно объединяются в одно. Например, назначение голосования в парламент, участие в нём движений и политических партий, представление ими списков кандидатов, основные правила проведения

mustahkamlab qo‘yilgan siyosiy munosabatlardir. Partiyalar, harakatlar kurash olib borishi uchun bir-birlari bilan blok tuzishlari, qaysi nomzodlarni ko‘rsatishni afzal ko‘rishlari, tashviqot o‘tkazishning qanday aniq usullarini tanlab olishlari – bular ham siyosiy munosabatlar bo‘lsa-da, ammo nohuquqiy, ya’ni huquq orqali tartibga solinmaydigan munosabatlardir.

Siyosiy partiya – o‘z a’zolari va tarafdorlarining siyosiy irodasini ifoda etadigan, shu davlat siyosiy yo‘nalishini belgilashda, davlat hokimiyat organlarini shakllantirishda, shuningdek, hokimiyatni o‘zining vakillik hokimiyat organlariga saylangan vakillari orqali amalga oshirishda ishtirok etishni o‘ziga vazifa qilib olgan barqaror tuzilmaga va doimiy faoliyat xarakteriga ega bo‘lgan mustaqil ijtimoiy birlashma. Partiyaning aniq yuridik ta’rifi aniq davlatlar qonunchiligida beriladi va ular mahalliy siyosiy va huquqiy an’analarga ko‘ra jiddiy farqlanishi mumkin.

Siyosiy tartib (rejim) – siyosiy hokimiyatni amalga oshirish usullari, metodlari va vositalarining majmui.

Siyosiy huquqlar – fuqarolarning davlatni boshqarishda, davlat organlarini tuzishda va boshqa jamoat ishlarida ishtirok etishini ta’minlovchi huquqlardir. Siyosiy huquqlarga saylov huquqi, referendumda ishtirok etish, mitinglar, namoyishlar, yig‘ilishlar o‘tkazish, siyosiy partiyalar va boshqa jamoat birlashmalariga a’zo bo‘lish, ommaviy harakatlarda

предвыборной агитации- все это закрепленные в законодательстве политические отношения. Несмотря на то, что образование блоков партий и движений для борьбы между собой, предпочтение выдвижения в кандидаты, выбор конкретных способов проведения агитаций также считается также политическими отношениями, является не правовыми, т.е. не регулируется посредством права.

Политческая партия – самостоятельное общественное объединение, имеющий регулярный характер устойчивого образования в выражении политической воли своих членов и сторонников, непосредственно ставящая перед собой задачи овладеть политической властью в государстве, определять политическое направление данного государтсва, или принять в ней участие через своих представителей в органах государственной власти. Точное юридическое толкование политических партий дается точным законодательством государств и могут серъено отличаться друг от друга местно-политическими и правовыми традициями.

Политический режим – методы осуществления комплекса методов, способов и средств осуществления политической власти.

Политические права – права обеспечивающие гражданам участие в управлении государства, образовании государственных органов и участие в других общественных делах. К П.п. относятся избирательные права, участие в референдумах, проведение митингов, демонстраций, собраний, право быть членами политических

ishtirok etish, davlat organlariga murojaat etish huquqlari kiradi.

Simulyasiya – inson o‘zida yo‘q kasallik belgilarini tasvirlashi.

Soliq agentlari – Soliq Kodeksga muvofiq zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni hisoblab chiqarish, soliq to‘lovchidan ushlab qolish hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga o‘tkazish majburiyati yuklatilgan shaxslardir.

Soliq qarzi – soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha qarz summasi, shu jumladan, Soliq kodeksida belgilangan muddatida to‘lanmagan moliyaviy sanksiyalar.

Soliq munosabatlarining sub’ektlari – soliq to‘lovchilar va vakolatli organlar.

Soliq to‘lovchilar – Soliq Kodeksiga muvofiq zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash majburiyati yuklatilgan jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar va ularning alohida bo‘linmalaridir.

Soliq to‘lovchining vakillari – qonunga yoki ta’sis hujjatiga muvofiq soliq to‘lovchining vakili bo‘lishga vakolatli shaxslardir.

Soliq huquqi – soliqlarni belgilash va undirib olish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi moliyaviy-huquqiy me'yorlar majmui.

Soliqlar – Soliq kodeksida belgilangan, muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg‘araz xususiyatga

партий и иных общественных объединений, участие в общественных движений и право обращаться в государственные органы.

Симуляция – изображение человеком симптомов болезни, которой у него нет.

Налоговые агенты – лица, на которых в соответствии с Налоговым Кодексом возложены обязанности по исчислению, удержанию у налогоплательщика и перечислению в бюджет и государственные целевые фонды налогов и других обязательных платежей.

Налоговая задолженность – сумма задолженности по налогам и другим обязательным платежам, включая финансовые санкции, не внесенная в установленный Налоговым кодексом срок.

Субъекты налоговых отношений – налогоплательщики и уполномоченные органы.

Налогоплательщики – физические лица, юридические лица и их обособленные подразделения, на которых в соответствии с Налоговым Кодексом возложено обязательство по уплате налогов и других обязательных платежей.

Представители налогоплательщика – лица, уполномоченные представлять налогоплательщика в соответствии с законом или учредительным документом.

Налоговое право – совокупность финансово-правовых норм, регулирующих общественные отношения, возникающие в процессе установления и взимания налогов.

Налоги – установленные Налоговым Кодексом обязательные денежные платежи в бюджет, взимаемые в определенных размерах,

ega bo‘lgan, byudjetga yo‘naltiriladigan majburiy pul to‘lovlari.

Soliqlar bo‘yicha imtiyozlar – yuridik va jismoniy shaxslarni amaldagi qonunchilikka muvofiq soliqlar to‘lashdan to‘la yoki qisman ozod etishdir.

Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash – foyda (daromad) yoki soliq solinadigan boshqa ob’ektlarni yashirish, kamaytirib ko‘rsatish, shuningdek, davlat tomonidan belgilangan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni ancha miqdorda to‘lashdan qasddan bo‘yin tovlash. Mazkur qilmish ma’muriy preyuditsiyaga ega.

Sof tushum – tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxida hisobga olinadigan qo‘shilgan qiymat solig‘ini hamda aktsiz solig‘i summalarini kiritmagan holda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum.

Sof foyda – soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar to‘langanidan keyin yuridik shaxs ixtiyorida qoladigan foyda.

